

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TARIX FAKULTETI
“O'zbekiston tarixi” kafedrası

QILICHEVA SHOXSANAM FARXOD QIZI

BITIRUV MALAKAVIY ISH

MAVZU: SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA DINIY SIYOSAT
MAVZUSINI O'RGANISH

Ilmiy rahbar:
Katta o'qituvchi **F.Polvonova**

Navoiy – 2014

SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA DINIY SIYOSAT MAVZUSINI O'RGANISH

MUNDARIJA:

KIRISH

I. BOB. O'ZBEKISTON MUSTABID TUZUM ISKANJASIDA.

1.1. Sovetlar davrida dinga munosabat va dinning paydo bo`lishi masalasining o`rganilishi

1.2. «Shaklan milliy va mazmunan sotsialistik». Sovetlar hukumatining islom diniga munosabati.

II. SOVETLAR HUKMRONLIGI YILLARIDA YURITILGAN DINIY SIYOSAT VA UNING OQIBATLARI.

2.1. Sovetlar hukmronligi davrida qatag'on qilingan din peshvolari.

2.2. Sovet hokimiyati yillarida musulmonlarning Haj ziyorati.

2.3. Mavzu yuzasidan ta'limni tashkil etish haqida tushuncha, uning xilma – xil turlari.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar.

KIRISH

Afsuski, sovetlar davrida tarixni o`rganish va o`qitish ishlari marksistik metodologiyaga bo`ysundirildi. Har voqeani yoritishda komfirqa mafkuraviyligi, partiyaviylik, sinfiylik nuqtai nazardan yondoshildi. Mamlakat, butun bir xalq tarixi ikkiga-ekspluatator va ekspluatatsiya qilinuvchilar, quldorlar va qullar, feodallar va qaram dehqonlar, burjuaziya va yollanma ishchilar, boylar va kambag'allar, mulkdorlar va mulksizlar tarixiga bo`lindi. Boylar va mulkdorlar, ular orasidan chiqqan beklar, amirlar, xonlar, davlat arboblari, ruhoniylar qoralandi, nomlari badnom qilindi.

Tarixiy voqealar jamiyat a'zolarining qismi kambag'allar va yo'qsillarni himoya qilgan holda, ularning manfaatiga bo`ysindirilgan holda yoritildi. Din, diniy qadriyatlar qoralandi, insonlarning diniy e'tiqodlari oyoqosti qilindi, ruhoniylar quvg'in ostiga olindi. Buyuk olimlar, allomalar, ma'rifatparvar shoiru - ulamolar, yozuvchilar ikkiga - materialistlar va idealistlarga bo`lindi. Ulardan u yoki bu dinga e'tiqod qilganlari idealist deb ataldi va shuning uchungina ta'kib etildi, ularning faoliyatini o`rganish ta'qiqlandi, o`zlari taxqirlandilar, asarlari xalqdan yashirildi, yo`qotib yuborildi. Oqibatda ko`pgina tarixiy voqea - xodisalar soxtalashtirildi, o`tmish qoralandi, ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz haqoratlandi. Yosh avlodga ularni jirkanch illat, xurofot, eskilik sarqitlari, deb o`rgatildi.

Tarix faqat jangu-jadal, urushlardan iboratdek qilib ko`rsatildi. Xalqimiz tarixining bu qadar soxtalashtirilishiga faqat marksistik metodologiyaning yaroqsizligini aybdor deyish kifoya qilmaydi, albatta. Bu borada mamlakatda hukmron bo`lgan totalitar tuzumning salbiy roli katta bldi. Tarix esa totalitar tuzum xizmatchilariga, targ'ibotchi va himoyachisiga, kommunistik mafkura dumiga aylantirilgan edi.

O'zbekiston tarixini o`rganishning bir qator ilmiy - nazariy va metodologik asoslar mavjud bo`lib, ular chuqr ilmiylik, rostguylik, tarixiylik, izchillik, xaqqoniylik va boshqalardan iborat. Bu kabi nazariy-metodologik asoslar tarixiy tasavvurni, tushuncha va xulosalarning ilmiy-amaliy va uslubiy

jihatdanto`g`ri hosil qilinishiga poydevor bo`lib xizmat qiladi, tarixni o`rganish va o`qitish jarayonida milliy istiqlol, vatanparvarlik,insonparvarlik, baynalmilallik kabi ulug` fazilatlarni xalqimiz an`analari, urf- odatlari, diniy e`tiqodlari kabi milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga chuqur singdirish, ularni e`zozlash ustivor vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga moziyga hurmat bilan qarash, milliy tiklanish tafakkuri, yondashuv ruhini yoshlar dunyoqarashida shakllantirish lozimdir.

1. BOB. O'ZBEKISTON MUSTABID TUZUM ISKANJASIDA.

1.1. Sovetlar hukmronligi davrida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy hayot.

Ilmiy ateistik targ'ibot muvoffaqiyatli bo'lishi uchun u, haqiqatdan ilmiy bo'lishi ya'ni, haqiqiy fan yutuqlariga asoslangan bo'lishi kerak yo'qsa u ilmiy targ'ibot bo'lmaydi va ko'plab xollarda bu aynan shunday ilmiy atestik mavzuga oid ishlar olib borishda tabiiy fanlar bilan ko'plab fanlar bilan bog'liqdir. Bu mavzularni yoritayotganda ilmiy yutuqlarga asoslanib yoritib berilgan ular odatda zamonaviy fan holati darajasida turadi dinning kelib chiqishi masalarida ishlarga keng yo'l berilmagan. Bu jarayonda etnagrafiya fani ilmiy atestik targ'iboti o'rtasida bir qancha bo'linish sezilgan fanlar orasida asosan etnagrafiya ilgari ketgan. Buni shundan ko'rish mumkinki

Ko'plab broshyuralar chop etilgan lekin bu davrning broshyuralarini qoralamoqchi emasman, ko'plab hollarda bu masalalarda xatoliklar uchrab turadi. Bu broshyuralarda dinga bog'liq bo'lgan masalalar mavhum yoritilgan. Misol uchun Malinin broshyurasida ko'rish mumkin unda dinning kelib chiqishi broshyurasi keltirilgan. Dinning kelib chiqishi va etiqod Prokofeva broshyurasida 1955, Nikofova – Dinning kelib chiqishi va paydo bo'lishi mohiyati –broshyurasida ko'rish mumkin hozirgi zamon etnografiya fani nafaqat dinning kelib chiqishi mohiyatini balki uning paydo bo'lishi va dinning alohida formalari, marosimlarini o'rganshga imkon beradi. Ilmiy atestik targ'ibot aniq amaliy natija berishi uchun dinni mohiyatini tushuntirish yetarli emas, buning uchun tushunarli urf odat marosimlardan misol keltirish kerak. Bu ilmiy bo'linishni sababi nima degan savolga javob berish lozim ko'p hollarda bu ayiblovlar olimlarni o'zida bo'ladi, ya'ni olimlarga etnogrflarga bog'liq, chunki biz o'zimizning yutuqlarimizni yetarlicha ommalashtirmaymiz. Fan mulohazalarini targ'ibot qilmaymiz haqiqatdan ateistik targ'ibotni olib boradigan odamlar uchun etnagrafik adabiyotlarni topilishi qiyin rus tilida juda kam bori esa ommalashmagan chet el adabiyotlari ham sifatli emas. Dinning kelib chiqishi haqidagi savollarga juda umumiy javob berilgan elyustratsya

uchun olingan materiallar eski hollarda sifatsiz manba beriladi, bu manbalar amaliyotchi targ'ibotchilarini tayyorlaydigan manba emas. Ilmiy ateistik ma'lumotlarda bizni boshlang'ich holati tushunarli bu bilan bog'liq bo'lgan yechimini marksistik tarafdorlaridan topsak bo'ladi boshqa tariflarda odamlarning tabiiy kuchlar oldida kuchsizligini va dinning kelib chiqishi sababini ko'rsatish mumkin. Din bu insonlarni ojizligidan kelib chiqqan gap dinning umumiy kelib chiqqanida bo'lganda edi masalalar ancha yaxshi hal etilgan bo'lar edi bu yerda targ'ibotchi metodologik ilmiy xulosaga yondashadi va uni rivojlantirgan holda dinga to'g'ri tushuncha bera oladi gap din tarixini va etiqodlar to'g'risida ketganda din ko'pincha eskirgan holatlar va faktlar bilan chegaralanib qoladi masalaga aniqlik kiritish uchun o'rta asr olimlari qoldirgan merosga tanqidiy yondashishimiz kerak¹. O'rta asr olimlari ko'p etibor qaratishgan o'rta asr olimlarini o'rgangan ma'lumotlarini ijobiy yondashib kerak emas deb chiqarib tashlolmaymiz. ²

Oktabr harbiy to'ntarishi tufayli hokimiyatni egallab olgan sovetlar hukumati O'rta Osiyo hududlarida mustamlakachilik tartib-qoidalarini mustahkam poydevor asosida qurish uchun ikki xil kurash yo'lini tanlab olganliklari o'tgan mavzularda ta'kidlandi. **Birinchi yo'l**, istiqlolga, milliy ozodlikka otlangan tub erli musulmon aholini zo'rlik bilan, kuch bilan bostirish, ularni qirib bitirish yo'li. Bu yo'lni sovetlar tish-tirnog'igacha zamonaviy harbiy qurollar bilan qurollangan Qizil Armiya vositasi bilan amalga oshirdilar. Bu yo'l 30-yillarning o'rtalarigacha davom ettirildi.

Ikkinchi yo'l mafkuraviy jabhada olib borildi. Bundan sovetlar hukumati va Kompartiya keng mehnatkashlar ommasining ongiga tinch kurash vositalari orqali g'oyaviy-siyosiy va mafkuraviy sohada ta'sir ko'rsatish yo'lidan bordi. Bu yo'lni amalga oshirish niyati bilan Sovetlar hukumati o'zida bor bo'lgan barcha imkoniyat hamda vositalarni ishga solib: Turkistonni RSFSR tarkibidagi muxtor jumhuriyatga aylantirdi: Xorazm va Buxoro Xalq Sovet jumhuriyatlarini

¹ Токарев.С.А Религия в истории народов мира.М.1976.

² Токарев С.А. Происхождении и ранних формах религии с.т 171-172

tuzdi: Turkiston, Xorazm va Buxoro Kompartiyalarini tashkil etdi, Kasaba Ittifoqi komsomol, pioner va shuning singari boshqa jamoat tashkilotlarini shakllantirdi. Ana shu juda katta kuch vositasi orqali xalq ommasi ongiga sovetlar va Kompartiya rahnamoligida amalga oshirilajak halqchil va dunyoda «eng adolatli va demokratik» sotsialistik, kommunistik tuzumning afzalliklari to'xtovsiz singdirib borildi.

Sovetlar va kompartiya yuritgan bu siyosatning markazida «dunyoda eng adolatli va birdan bir to'g'ri bo'lgan lenincha milliy siyosati» yotardi. Bu siyosatning bosh talabi «millatlarning to milliy mustaqil davlat bo'lib ajralib chiqishiga qadar o'z taqdirini o'zi belgilashi»dan iborat nihoyatda jozibador talabdir. Ammo milliy masalada bolshovoylar dasturida ilgari surilgan bu bosh talab faqat deklorativ xarakterga ega bo'lib, amalga oshmaydigan quruq sarobdan iborat edi.

Sovetlar hukumati va Kompartiya amalga oshmaydigan va shirin hayoldan iborat «sotsializm va kommunizm» haqidagi dastur, shior va chaqiriqlar asosida amalda Chor Rossiyasiga nisbatan ham ayanchliroq va dahshatliroq mustamlakachilik siyosatini olib bordi. Bu siyosat «Kommunistik firqaning lenincha milliy siyosati» deb atalmish balandparvoz, havo va g'irt yolg'on, faqat targ'ibot va tashviqotdan iborat g'oyalar va qarashlarda ko'klarga ko'tarib maqtaldi. Lenincha milliy siyosiy qobig'iga o'ralib O'zbekistonda amalga oshirilgan mustamlakachilik siyosatining maqsadlari nimalardan iborat edi? degan qonuniy savol tug'iladi. Ular asosan quyidagilardan iborat:

Birinchidan, siyosiy sohada Turkistonni milliy jihatdan parchalab tashlash, o'lkaning milliy mustaqil davlat sifatida shakllanishi va oyoqqa turishini abadul-abad yo'q qilish, hududiy jihatdan uni Rossiya Federatsiyasining bo'linmas tarkibiy qismiga aylantirish.

Ikkinchidan, ma'naviy-mafkuraviy sohada o'lkada «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik» madaniyat shiori asosida amalda ruslashtirish siyosati olib borilishi va u kelajakda bu siyosat o'lkadagi tub erli aholining «velikorusslar» bilan qo'shilib, assimilyatsiyalashib ketishiga xizmat qilmog'i kerak edi.

Sovet hukumati va Kompartiya o'zining bu strategik bosh dasturiy maqsadini juda ustalik, ehtiyotkorlik va ayyorlik bilan rejali suratda, ammo og'ishmay amalga oshirdi. U o'z faoliyatida mustamlaka asoratida yashayotgan millatlarda shubha uyg'otmaslik maqsadida milliy masalada ikkita asosiy xavf bor: biri buyuk davlatchilik (velikorus) shovinizmi va ikkinchisi mahalliy millatchilik degan aqidaga amal qildi. Kompartiya millatchilikning qaysi biri xavfli: buyuk davlatchilik shovinizmimi yoki mahalliy millatchilikmi? degan savolga millatchilikning qaysi biriga qarshi kurash susaytirilgan bo'lsa, o'shanisi xavfli deb e'lon qildi. Amaliy faoliyatda esa sovetlar tarixida buyuk davlatchilik shovinizmi kasaliga muhtalo bo'lgan va u bilan zaharlangan, ushbu kasallik tufayli Turkistonda tub erli aholini sonsiz-hisobsiz dahshatli qirg'inlar qilgan, shahar va qishloqlarni yondirib kulini ko'kka sovurgan «buyuk og'alar»dan birortasiga biror bir keskin chora ko'rilgan emas. Holbuki, buyuk davlatchilik, shovinizmi va mustamlakachilik siyosati har qanday mahalliy millatchilikning aks sadosidir. Bu narsaga ajablanishning hojati yo'q. Chunki Sovetlar davlati va Kompartiyaning hech qachon qabul qilgan qarori, aytgan so'zi bilan amalda qiladigan ishi bir xil bo'lmagan, u doimo birinchisini ikkinchisi inkor etgan. O'zining qonuniy va adolatli milliy haq-huquqini talab qilgan mahalliy millat vakillari esa darhol millatchi sifatida yo'q qilib borildi. Bunga Turkiston o'lkasi xalqlari istiqloq uchun va milliy-ozodlik uchun kurash yillarida o'z tajribalarida ko'rib to'la ishonch hosil qildilar.

1921 yil 8-16 martda Moskvada RKP(b)ning X qurultoyi bo'lib o'tdi. Milliy masala bo'yicha qilgan qarorida qurultoy Kompartiyaga qarshi ikkita og'machilik borligini ko'rsatdi: buyuk davlatchilik shovinizmi va mahalliy millatchilik. Holbuki bu paytda Turkistonda milliy istiqloq, erk va ozodlik deb ming-minglab tub erli aholi Qizil askarlarning shafqatsizlarcha bosqini tufayli qurbon bo'layotgan edi. Sovetlar hukumati va Kompartiya mustaqillik, erk va ozodlik uchun kelgindi bosqinchi Qizil askarlarga qarshi adolatli kurashga otlangan mahalliy tub erli vatanparvarlarni «bosmachi» deb atadi, Qizil askarlarni esa «haloskor armiya» sifatida ko'klarga ko'tardi. Albatta bu adolatsizlikni o'z ko'zi bilan ko'rgan xalqning Sovet hukumati va

Kompartiyadan hafsalasi pir bo'ldi. Dastlabki paytlarda Sovet va Kompartiyaning tashviqot va targ'ibotiga aldanib uning tomoniga o'tganlar ham tez orada o'z hatolarini tushinib milliy istiqlol tomoniga yashirin va oshkora suratda o'ta boshladilar. Sovetlar esa bunday vatanparvarlarga «millatchilar», «xalq dushmanlari», «aksilinqilobchilar» kabi tamg'alarni yopishtirdilar. Kompartiyaning V.I.Leninning milliy siyosati amalda g'irt yolg'on va uchiga chiqqan va borib turgan shovinistik mustamlakachilik siyosatining tub mohiyati ekanligini birinchilar qatorida tushungan va anglab etgan ushbu masalada shaxsan bolshovoylarning dohiysi bilan uchrashib milliy masalada uning dasturini inkor etgan shaxs Ahmad Zakiy Validiydir. U 20 yillarning boshlarida V.I.Leninga yozgan xatida bunday degan edi: «...O'rtoq Stalin O'rtoq Rudzutak yordamida, meni partiyaga qaytarishga urinmoqda. 1920 yilda Markaziy Komitetga Bokudan yozgan xatimda Moskvaga qarshi qaratilgan faoliyatimni, bosmachilar harakatiga qo'shilishimni ochiq bildirganman, lekin ular bilmaslikka olishyapti... Sovet hukumati 1917 yil 20 noyabrida qabul qilingan «Rossiya musulmonlariga» nomli dekretidagi Rossiyadan ajralib chiqish huquqini (do otdeleniya ot Rossii) 1920 yilning 19 mayida chiqarilgan farmoningiz (Mustaqil Boshqird armiyasini tan olmaslik va uni Old Volga okrugiga bo'ysundirish haqidagi farmon-mualliflar)da ildizi bilan yo'q qilindi. Bundan so'ng, garchi boshqird, qozoq va turkistonliklar hozir mag'lubiyatlarga uchragan esalar-da, ertangi kun Sovet Rossiyasidan chiqib ketajak va sharqiy-kun chiqish musulmonlari tarixida yangi bir davr ochilajak: musulmonlarning haq va huquqlarini, Rossiyaning ichki kurashlari hal etaolmaslik tajribasi achinarlidir. Shuning uchun ularni hal qilish xalqaro kurash maydoniga chiqadi. Mening maqsadim va asosiy ishim ozodlikka bo'lgan da'volarning tarixini erkin dunyo orqali bashariyatga ma'lum qilishdan iboratdir... Velikoruslar hozir o'z qo'li ostida qolgan elat va millatlarga qarshi qaratilgan siyosatini ijtimoiy va iqtisodiy sohadagina emas, madaniyat sohasida ham qat'iy ravishda amalga oshira boshladi»³. Ahmad Zakiy Validiy lenincha milliy siyosatning butun

³Zakiy Validiy To'g'on. Xotiralar. «Sharq yulduzi», 1993 yil, 9-son, 168-bet.

boshli reaksion mohiyatini ochib yana davom etadi: «...Siz velikorus o'rtoqlaringiz bilan birga oddiy bir millatning tilidan va yozuvidan boshlab, ularni butunlay ruslashtirib bo'lmaguncha yoqalaridan qo'yib yubormayajaksizlar... Boshqa asarlaringizda millatlarga o'z huquqlarini to'liq bir shaklda o'z qo'llariga topshirish haqida so'zlaringiz bilan hozirgi siyosatingiz orasidagi tafovut qabul qilib bo'lmaslik darajadadir. 1919 yilning yozida, biz armiyamizning tashkiliy ishlari bilan Saranskda bo'lgan paytda, siz tomondan vakil qilib yuborilgan o'rtoq Zaretskiy xalqimizga «Mazlum millatlarimizning o'z mustaqilligi, ularning milliy hukumat, milliy askar tashkil qilish masalalarini, tarixda birinchi bo'lib, faqat Sovet hukumati hal etayajak», deb bir oy davomida ko'p yig'inlarda tushuntirish ishlari olib bordi. Men ham «Pravda»da bu ishontirishlarga muvofiq bir maqola bostirdim. To'rt yil ham o'tmadi, siyosatingiz tamomila teskari tomonga burilib, amalga oshdi... Faqat haqiqat shunday: Grigoriy Safarov kabi insonparvar odamlarning Turkistonga kelib podshoning bu erda ilk bor o'rnatgan mustamlaka siyosati hozir ham davom etayotganini tanqid qilib, maqolalar e'lon qilgani uchun unga achchiqlangan velikoruslaringiz, kichik millatlarni kitga em bo'luvchi mayda baliqlarga qiyoslab, mahalliy xalqlar orasidan chiqqan kommunistlar o'rtasida tushuntirish ishlari olib bordilar va o'sha fikrni bir ta'limot o'rnida gapirib quvondilar... Bu so'zlar Rossiya doirasida qolmas, hech shubha yo'qki, bu so'zlaringiz kelajakda ham tarqaladi va pirovard-oqibatda o'z hohishi bilan yashamoqchi bo'lgan, lekin sizning qo'l ostingizda qolgan xar bir millatning birinchi dushmani Sovet Rossiyasi bo'lajak»⁴.

Zaki Validiy V.I.Leninning «proletar diktaturasi jahon miqyosida g'alaba qilgandan keyin ortda qolgan millatlar ilg'or millatlarning (ular safiga hukmronlik qiluvchi millatlar ham kiradi) faol yordamida sotsializm qurishni amalga oshirishi shart ekanligi» to'g'risidagi g'oyalarni tanqid qilar ekan, xulosa chiqaradi: «Bu esa «Xindistonda ingliz, Turkistonda rus, Afrikada

⁴ Zakiy Validiy To'g'on. Xotiralar. «Sharq yulduzi», 1993 yil, 9-son, 168-169-bet.

frantsuz va Belgiya ishchilari tashkilotlari mustamlakachilik siyosatini davom ettirajak» degan so'zdir», deya kinoya qiladi.

Kompartiya lenincha milliy siyosatining shovinistik va mustamlakachilik mohiyatini Turkistonning tub erli xalqlari orasidan chiqqan, juda ko'plab mahalliy kadrlar ham kechikib bo'lsada tushundilar, ular Sovetlarning buyuk davlatchilik siyosatiga qarshi kurashdilar va milliy mustaqillikni talab qildilar. Ammo ularning hammasiga «xalq dushmani», «aksilinqilobchi» va «Mahalliy millatchi»lik tag'asi yopishtirilib egallab turgan lavozimlaridan olib tashlandilar yoki yo'q qilib yuborildilar. 20-30 yillarda «mahalliy millatchi»likda ayblangan, quvg'in va qatag'on qilingan kadrlar orasida T.Risqulov, A.Rahimboev, Sa'dulla Tursunxo'jaev, Usmonxon Eshonxo'jaev, Yoqubjon Isaqulov, Husanxon Niyoziy, Inomjon Xidiraliev, Raxim Inog'omov, Sa'dulla Qosimov, Bo'taboy Dadaboev, F.Xo'jaev va boshqa juda ko'plab jadid adib va arboblardan bor edilar.

Sovetlar hukumati va Kompartiyaning Turkistonda yuritgan milliy-mustamlakachilik siyosatiga baho berib Mustafo Cho'qay quyidagicha yozgan edi: «Kimki milliy-masala sohasidagi sovetlar siyosatidan o'ziga zarur saboqlar chiqarib olishni istasa, u Lenin programmasi Turkistonda amalda qanday qo'llanayotganini yaxshilab o'rganib chiqishi va shundan so'nggina biron xulosaga kelishi shart». Darhaqiqat Turkistonda Sovetlar olib borgan shovinistik mustamlakachilik siyosati lenincha milliy siyosatning naqadar mudhish va dahshatli ekanligini fosh etishda yorqin namunadir.

Sovetlar hukumati va Kompartiya Turkistonda «Lenincha milliy siyosati» niqobi ostida jahon tarixida ko'rilmagan manfur va reaksion siyosat olib bordi. Bu siyosatning bosh yo'nalishi «bo'lib tashla, hokimlik qil!» dan iborat bo'lib, u azaldan, asrlar osha yagona va bir butun bo'lgan Turkistonni parchalab yuborishga qaratilgan edi. Ana shu manfur maqsadni amalga oshirish uchun 1924 yil 31 yanvarda O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishini o'tkazish to'g'risida RKP(b) Markaziy Qo'mitasining Tashkiliy byurosi qaror qabul qildi va bu masalani o'rganib chiqish A.E.Rudzutakka topshirildi. Sovetlar davrida yaratilgan tarixga oid manbalarda riyokorlik bilan Turkiston, Buxoro va Xorazmning mahalliy firqa va sovet tashkilotlari 1924 yil boshida «O'rta

Osiyoning yangi sovet milliy respublikalarini tashkil etish vazifasini o'rtaga...»⁵ qo'yganligini yozgan edi. Bu amalda lo'ttibozlik va siyosiy o'yin bo'lib mustamlakachilarning qora qilmishlarini oqlashga xizmat qilardi. Chunki O'rta Osiyoni «milliy belgilarga qarab» bo'lib tashlash g'oyasi 1924 yilda ko'tarilgan emas. Bu g'oya velikoruslar tomonidan 1920 yilning boshidayoq Turkkomissiya raisi Ya.E.Rudzutak tashabbusi bilan e'lon qilingan tezislarda Turkiston ASSRni milliy belgilarga qarab bo'lib tashlash va muxtor (avtonom) respublikalar tuzish taklif qilingan edi. Mazkur tezislar shu yilning iyun oyida RKP(b) MQsining partiyaning Turkistondagi vazifalari haqida deb nomlangan qarori loyihasiga kiritildi. V.I.Lenin 1920 yil 13 iyunda Turkkomissiya qarori loyihasini shaxsan ko'rib chiqdi va o'sha paytdayoq Turkistonni «Uzbekiya», «Qirgiziya», «Turkmeniya» va boshqa etnik guruhlariga bo'lib parchalab tashlashni, ularning xaritasini tuzish zarurligini ko'rsatgan edi⁶. U keyinchalik 1920 yil 22 iyunda ustamonlik bilan oqibatini o'ylab «...respublikani 3 qismga bo'lish oldindan hal qilinmasin» deb ogohlantirib ham qo'ydi. Buni xalq «suvdan oldin band solish» degan naql bilan asoslaydi.

Sovetlar hukumati va Kompartiyaning yagona va bo'linmas bir butun bo'lgan O'rta Osiyoni sun'iy suratda milliy belgilarga qarab parchalab tashlashga qaratilgan yo'li tub erli musulmon aholining milliy manfaatlariga mutlaqo qarama-qarshi edi. Chunki bu yo'l azal-azaldan, asrlar osha o'lkada yagona millat sifatida yashab kelayotgan tili bir, dini, urf-odati, madaniyati va kelib chiqishi tarixi bir bo'lgan xalqlarni bo'lib yuborish, begonalashtirishga xizmat qilar edi. Bu yo'l o'lkada Rossiya mustamlakachiligi poydevorini mustahkamlar, o'lka xalqlarining o'z milliy o'choqlari atrofida o'ralashib qolishlari sababidan, ularning dushman bo'lgan Sovetlar Rossiyasiga qarshi birgalashib, yagona jabhada kurash olib borishlarini qiyinlashtirar edi. Shu boisdan uzoq istiqbolga ziyraklik bilan nazar tashlagan Turkiston o'lkasining ilg'or vakillari RKP(b) tashabbusi bilan o'tkazilajak milliy davlat chegaralanishiga qarshi chiqdilar.

⁵O'zbekiston SSR tarixi. To'rt jildlik. Bosh muharrir I.Mo'minov, Uchinchi jild, 397-bet.

⁶Lenin V.I. TAT. 41-jild, 492-bet.

O'sha 1920 yilidayoq T.Risqulov boshchiligidagi bir guruh milliy istiqlol fidoyilari Ya.Rudzutak tezislarini qoralab unga qo'shilmasliklarini ilgari surdilar. Ular turkiy xalqlar tarixiy ildizi jihatidan yagona va bo'linmasdir, ularning tili, dini, urf-odati, va madaniyati bir ekan yagona Turkiston ularning mushtarak uyi ekanligi g'oyasini ko'tarib chiqdilar. Ammo bu fikrni markaziy Sovet hukumati va Kompartiya MQsi «panturkizm», «panislomizm» va «burjua millatchiligi»da aybladi va uning ilhomchilarini tegishli suratda jazoladi. Turkiston, Buxoro va Xorazmda milliy davlat chegaralanishni o'tkazish bilan bog'liq masalalarda 1924 yil iyuniga qadar turli xil fikr-qarashlar bayon etildi. Bu fikr-xulosa va munozaralar yagona Turkiston xalqlari o'rtasida mahalliychilik nizolarining kuchayishiga sabab bo'ldi.

1924 yil 12 iyunida RKP(b) MQsining Siyosiy Byurosi «O'rta Osiyo respublikalarini (Turkiston, Buxoro va Xorazm) milliy chegaralash to'g'risida»gi masala bo'yicha qaror qabul qildi. Unda quyidagilar ko'zda tutildi:

a) Turkiston, Buxoro va Xorazmning turkmanlar yashaydigan qismlarida mustaqil Turkmaniston respublikasi tashkil etish:

b) Turkiston va Buxoroning o'zbek yashaydigan qismlaridan mustaqil O'zbekiston respublikasi tashkil etish:

v) turkmanlarni ajratib olib, Xorazm respublikasini mavjud hoida qoldirish. Chunki Xorazm respublikasi rahbarlari 1924 yil 8mayda RKP(b)MQsigga «Xorazmda milliy masalani hal qilish to'g'risida maktub» yo'llab, unda Xorazmni milliy chegaralashga qo'shmaslikni so'ragan edilar. Ular o'z fikrlarini Xorazmning olisda joylashganligi, iqtisodiy jihatdan ajralib turganligi avval-azaldan, qadimdan Xorazm nomi bilan davlat sifatida mavjudligi, davlatchilik an'analari davom etib kelayotganligi kabi masalalar bilan asoslagan edilar. 1923 yil oktyabridan Xorazm Kompartiyasining mas'ul kotibi lavozimida ishlagan Qalandar Odinaev ham bu g'oyani ma'qullagan edi. Ammo 1924 yil iyul oyida u Markazning fatvosi bilan ishdan olib tashlangach, 26 yilda Xorazm Kompartiyasi respublikaning chegaralanishga o'z «roziligi»ni bildirdi.

RKP(b) Markaziy Qo'mitasi Siyosiy Byurosining 12 iyundagi qarorida shuning dek, Turkistonning qozoq tumanlarini Qozog'iston muxtor respublikasiga birlashtirishni, hamda bevosita RSFSR tarkibiga kiruvchi Qirg'iziston muxtor viloyatini va O'zbekiston respublikasi tarkibida tojik muxtor viloyatini tuzishni zarur deb topdi.

Hamma ish Moskvada Kompartiya MQsi Siyosiy Byurosi iqrori bilan hal etilib bo'lgach u joylarda muhokama qilinib «yakdillik bilan ma'qullandi va qo'llab-quvvatlandi». Nihoyat 1924 yil 27 oktyabrda SSSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo'mitasining II Sessiyasi O'rta Osiyo xalqlarining «istagiga asoslanib» Turkiston MIQning U Butun Buxoro va U Butun Xorazm Sovetlari qurultoylarining milliy chegaralanish hamda yangi Sovet sotsialistik respublikalar va viloyatlar tuzish to'g'risidagi «iltimosi»ni qondirdi.

Yuqoridan qabul qilingan qarorlar asosida Turkiston, Buxoro va Xorazmda milliy davlat chegaralanishi o'tkazildi. Turkiston, Buxoro va Xorazm Sovet respublikalari o'rnida O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi, Turkmaniston Sovet Sotsialistik Respublikasi, O'zbekiston SSR tarkibiga kiradigan Tojikiston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi, RSFSR tarkibiga kiradigan Qoraqirg'iz(Qirg'iziston) Muxtor viloyati va Qozog'iston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi tarkibiga kiradigan Qoraqalpog'iston Muxtor viloyati tashkil etildi. Turkistonning qozoqlar yashaydigan tumanlari ham QASSR tarkibiga kirdi. O'zbekiston SSR hududida butun hokimiyat 1924 yil 31 oktyabrda tuzilgan O'zbekiston SSR Revolyutsion Komiteti qo'liga o'tdi. O'zbekiston SSR Inqilobiy Qo'mitasining raisi etib Fayzulla Xo'jaev tasdiqlandi. Turkmaniston SSRda Inqilobiy Qo'mitani Nedirboy Oytoqov boshqardi. 1924 yil noyabr va dekabr oylarida Nusratulla Lutfullaev raisligida Tojikiston ASSR Inqilobiy Qo'mitasi, I.Aydarbekov raisligida Qoraqirg'iz(Qirg'iziston) muxtor viloyati Inqilobiy Qo'mitasi faoliyat ko'rsatdi. Inqilobiy Qo'mitalar «milliy jumhuriyat va muxtor viloyatlar»ni tuzish ishi bilan shug'ullandilar.

1925 yil 13 fevralda Buxoro shahrida maxsus qurilgan «Xalq uyi»da O'zbekiston Sovetlarining I umumo'zbek qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda

«O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tuzish to'g'risida» deklaratsiya qabul qilindi. Dekloratsiyada O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganligi qonuniy rasmiylashtirildi. O'zbekiston Respublikasi SSSR⁷ tarkibiga kirdi.

Qurultoyda respublika davlat hokimiyatining rahbar organi O'zbekiston SSRning 160 a'zosi va 44 nomzoddan iborat Markaziy Ijroiya Qo'mitasi saylandi.

Yo'ldosh Oxunboboev O'zbekiston SSR MIQning raisi bo'ldi. Shuningdek Fayzulla Xo'jaev rahbarligida O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti tarkibi tasdiqlandi. Shu munosabat bilan RKP(b) MQ O'rta Osiyo Byurosi nashri bo'lgan «Za partii» jurnalida I.Xonsuvorovning O'zbekistonning davlat arboblari bergan bahosi g'oyatda o'rinlidir: Ana endi menga «Ozod sotsialistik O'zbekiston»ning mas'ul rahbarlari to'g'risida haqiqiy ma'lumot berishga ruxsat etsalaringiz:-«Okrug ijroiya komitetlari prezidiumi a'zolari va raislari arifmetikaning oddiy to'rt amalini ham bilishmaydi, hatto o'z tillarida ham qiynalib yozadilar. Parij va London shaharlari qaysi mamlakatning poytaxti ekanligini ham bilishmaydi, partiya tarixidan mutlaqo bexabar, partiya dasturini o'qib ham ko'rishmagan»⁸.

I.Xonsuvorov o'z maqolasida V.I.Leninning «Savodsiz odam siyosatdan tashqarida. Oldin unga alifboni o'rgatish zarur, busiz bu erda hech qanday siyosat bo'lmaydi, bu siz safsatobozlik, uydirmabozlik, ertakbozlik, aljirash bo'lishi mumkin, xolos, biroq siyosat bo'lmaydi» degan gaplarini keltiradi. U o'z xulosasini davom ettirib yozadi: «Mana shunday siyosatga tushunmaydigan» odamlarni sovetlar hukumati O'zbekistonda «davlat organlari rahbarlari» qilib qo'yibdi. Mamlakat hayotida, umuman davlatni boshqarishda «safsatobozlik, uydirma, aljirash»lardan ustalik bilan foydalanishmoqda, shu bilan birga bu odamlar butun mamlakatni «partiyaviy ertaklar va aljirashlar bilan to'ldirib bo'lishdi»⁹. I.Xonsuvorovning g'oyatda ibratli bu so'zlari

⁷1922 yil 30 dekabr Moskvada o'z ishini olib borgan Sho`ro Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi Sho`rolarining I qurultoyi SSSRni tuzilganligini qaror qildi.

⁸«Za partii» jurnali, 1927 yil, 3 son, noyabr.

⁹ O'sha manba.

O'zbekiston Respublikasi MIQsining raisi etib saylangan Yo'ldosh Oxuboboevning o'ziga ham bevosita aloqador edi. Mustafó Cho'qaeV bu to'g'rida quyidagilarni yozgan: «Safsatago'ylik, uydirma, aljirashdan iborat siyosatni tushunmaydigan» hukumat tarkibiga nafaqat okrug sovetlari a'zolari va raislari, balkim Sovet O'zbekistonining rahbari MIQ raisi Yo'ldosh Oxunboboevning o'zi ham kiradi. 1925 yil so'nggi saylovda nihoyat O'zbekiston MIQ raisi etib saylangach, uning savodsizligi aniq bo'lib qoldi...

Hozir Oxunboboev shiddat bilan «ilm olishga kirishgan», u o'z ismini qoyil maqom qilib yoza oladi va o'qishni ham bir iloj qilib amallamoqda. Biroq shunday bo'lsa-da, mana shu chalasavod dehqon «asosan, erli aholi vakillaridan iborat O'zbekiston hokimiyatini haqiqatan ham boshqaryapti» deb jiddiy ayta olamizmi?»¹⁰. Eng ajablanarli joyi shundaki. Sovetlar O'zbekistonning bosh nashri «Qizil O'zbekiston» gazetasi o'zining 1925 yil 23 avgust sonida «Barcha musulmon sharqi uchun sovet respublikalarning yorqin namunasi bo'lajak» O'zbekiston hukumatining tepasida savodsiz bir shaxs turganligidan faxrlanib yozgan. O'sha paytda O'zbekiston hukumatini boshqara oladigan zamonaviy bilim va malakaga ega bo'lgan o'qimishli bir rahbar nahotki respublikada topilmagan bo'lsa? degan qonuniy savol har bir kimsaning xayolidan albatta o'tadi. Bunday rahbar so'zsiz suratda ko'plab bor edi va topilar edi. Ammo Sovetlarga o'qimishli, siyosiy jihatdan etuk va iqtidorli rahbar emas, bosqinchi va mustamlakachilarning barcha talab va buyruqlarini quloq qoqmay bajaradigan qo'g'irchoq kerak edi. Bu to'g'rida Sovetlar Rossiyasining rahbar arboblariidan biri hisoblanagan G.Safarovning so'zlari nihoyatda ahamiyatlidir: «Mustamlakachilarga erli xalqdan chiqqan haqiqiy rahbar, o'zlari bilan bir safda turadigan teng huquqli o'rtoq kerak emas edi. Ularga tilmochlar va mirshablar kerak edi». Ana shunday tilmochlik va qo'g'irchoq dastyorlik vazifasini O'zbekiston rahbarlarining aksariyati o'ynab keldilar.

O'tkazilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida O'zbekiston SSR tarkibiga quyidagi hududlar kirdi: a) Sobiq Turkiston respublikasidan

¹⁰Safarov G. Mustamlaka inqilobi. Turkiston saboqlari. –M.: Gosizdat.1921. 108-bet.

Samarqand viloyatining Jizzax, Kattaqo'rg'on va Xo'jand uezdlarining 41 volosti: Sirdaryo viloyati Toshkent va Mirzacho'l uezdlarining 24 volosti: Farg'ona viloyati Andijon, Qo'qon, Namangan, Farg'ona uezdlarning 70 volosti va 7 qishloq okrugi (Shohimardon, Vodil va boshqalar): b) sobiq Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasidan Boysun, Buxoro, G'uzor, Qarshi, Karmana, Nurota, Shahrisabz, Sherobod, va qisman Sariosiyo viloyatlari: v) sobiq Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasidan 23 sovet (tuman) keyinchalik bular Gurlan, Yangi Urganch va Xorazm uezdlarini tashkil etgan edilar.

1929 yilga qadar O'zbekiston SSR tarkibida bo'lgan Tojikiston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi Turkiston va Buxoroning bir qator tumanlari bazasida tashkil etildi. Ular quyidagilardan iborat edi:

a) sobiq Turkiston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasidan Samarqand viloyati Samarqand va Xo'jand uezdlarining 12 volosti va Farg'ona viloyatidan Pomir tumani:

b) Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasidan Sharqiy Buxoro deb yuritiladigan barcha hududlar: Garm, Hisor, Ko'lob, Qo'rg'ontepa, Dushanba va qisman Sariosiyo viloyatlari bilan birgalikda.

Qoraqalpog'iston Muxtor viloyati Turkistonning Amudaryo viloyatidan va Xorazmning 3 ta sovet(tuman)idan tashkil topdi. U ma'muriy jihatdan to'rt okrugga: To'rtko'l, Chimboy, Xo'jayli va Qo'ng'iro't okruglariga bo'lingan.

O'zbekiston SSR hududi respublika tashkil etilgan dastlabki yillarda 312.394 kv. km dan iborat bo'lgan. Shu jumladan O'zbekiston tarkibidagi Tojikiston ASSRning hududi (Xo'jand okrugidan tashqari) 135-620 kv.km edi. O'sha paytda O'zbekistonning aholisi (Tojikistondan tashqari) 3 million 963 ming 285 kishi O'rta Osiyo jumhuriyatlari aholisining yarmini tashkil etardi. 1962 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxat ma'lumotlariga qaraganda O'zbekistonda (Tojikistondan tashqari) 4 million 447 ming 555 kishi yashagan. Ularning 47,2 foizi o'zbek, 7,8 foizi tojiklar, 5,6 foizi ruslar, 2,4 foizi qozoqlar, 2,04 foizi qirg'izlardan iborat edi.

O'zbekiston SSRning poytaxti etib Samarqand shahri belgilandi. 1930 yilda poytaxt Toshkent shahriga ko'chirildi. O'zbekiston SSRning tashkil etilganligini

1927 yil mart O'zbekiston SSR birinchi Konstitutsiyasining qabul qilinishi (O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining II quriltoyida qabul qilingan) bilan mustahkamlandi. Mazkur Konstitutsiyaga 1924 yilda qabul qilingan SSSR Konstitutsiyasi asos-ko'chirma bo'ldi.

Milliy chegaralanish bilan ayni paytda iqtisodiy chegaralanish ham o'tkazildi, ya'ni ilgari Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalari ixtiyorida bo'lgan barcha moddiy boyliklar: zavodlar, fabrikalar, er maydonlari, chorva mollari, madaniy oqartuv muassasalari kabilar davlat tashkilotlari o'rtasida taqsimlanadi. Ana shu taqsimot asosida O'zbekistonga 1195 ming desyatina sug'oriladigan erlar, 185 ta sanoat korxonasi, 2,590 ming bosh chorva mollari tegdi. 1924-1925 yillarda respublika jami aholisining 85 foizi qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tarmog'ida band edi.

O'zbekiston hududidagi sanoat korxonalarini asosan engil sanoat korxonalarini bo'lib, 39 tasi paxta tozalash zavodlari, 35 tasi oziq-ovqat korxonalarini kabilardan iborat bo'lgan. Ularda jami bo'lib, 87 ming ishchi ishlagan. Ishchilarning asosiy qismi Evropa millatlari vakillaridan iborat bo'lgan. Jumladan, Toshkentdagi «Birinchi may» ustaxonasida mahalliy ishchilar 2,1 foizni, mutaxassis ishchilar orasida esa 0,6 foizni tashkil etgan. Toshkentning «Krasno Vostochno'y» tumanida joylashgan 5 ta korxonadagi 2438 ishchidan mahalliy ishchilar 5 foizni¹¹ tashkil qilar edi va hokazo.

Maorif shahobchalari, madaniyat va sa'nat muassasalari ham taqsimlandi.

O'zbekiston SSRning tashkil etilishi munosabati Kommunistik firqa tashkilotlari ham hududiy jihatdan qayta shakllantirildilar. 1925 yil 8 fevralda Buxoroda O'zbekiston Kompartiyasining I qurultoyi o'z ishini boshladi. Unda Sovetlar Ittifoqi Kommunistik (bolsheviklar) firqasi tashkil etildi. Firqa Markaziy Qo'mitasi saylandi. V.I.Ivanov va A.Ikromovlar Markaziy Qo'mitaning mas'ul kotiblari etib saylandilar.

O'zbekiston SSR tashkil etilishi munosabati bilan Respublika jamoat tashkilotlari ham shakllantirildilar.

¹¹ «Erk» gazetasi, 1990 yil, 24 sentyabr, 18-son.

Shunday qilib, Markaziy Sovetlar hukumati va Kompartiya Markaziy Osiyo jumhuriyatlarida milliy davlat chegaralanishini o'tkazdi va yagona turkiy xalqlarni parchalanishini ta'minlab, milliy xonadonlarga bo'lib yubordi. Bu bilan u o'lkada buyuk rus mustamlakachiligi siyosatini yurgizish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratdi va shovinistik tartib-qoida va idora qilish talablariga javob beraoladigan boshqarish uslubini joriy etdi. Chunki milliy davlat chegaralanishi shunday ayorlik va ustalik bilan o'tkazildiki, bu hududda qadim-qadimdan bir ota-onadan tug'ilgan qon-qardoshlardek do'st va ahil bo'lib yashab kelayotgan qirg'iz, qozoq, tojik, turkman, o'zbek va qoraqalpoqlarning birortasi ularga qancha hududiy maydon er tekkanligidan qat'iy nazar bu bo'linishdan qoniqish hosil qilmadilar, ularning qalbining to'rida milliy chegaralanishdan norozilik saqlanib qoldi. Aslida bolsheviklar o'tkazgan bu milliy-hududiy chegaralanish O'rta Osiyo xalqlari o'rtasidagi bo'lajak millatlararo munosabatlar, jarayonlar ostiga ma'lum vaqtda portlaydigan mina qo'yish degan gap edi, ular favqulodda vaziyatlarda portlab, turli nizo va keskin holatlar keltirib chiqarishi mumkin edi¹². Bu hol hozirgi kunda ham o'zining salbiy ta'siri aks sadosini ko'rsatmoqda. Norozilikning bosh sababi-milliy-hududiy chegaralanishning adolatli o'tkazilmagani dadir, u yoki bu millat vakillari yashaydigan «barcha hududlar»ning o'z respublikasi hududiga ajratib berilmaganligi, u erlarning boshqa millat nomi bilan ataluvchi jumhuriyatlar qaramog'ida qolib ketganligidir.

Rahim Masovning 1991 yil Dushanbada «Irfon» nashriyotida chop etilgan «Istoriya tapornogo razdeleniya» («Bolta bilan bo'linish tarixi») kitobi bu fikrni batamom isbotlaydi. Muallif o'zining tor siyosiy dunyoqarashi qobig'iga o'ralib qolib, 1924-1925 yillardagi milliy davlat chegaralanishini o'tkazishda o'zbeklarni «buyuk millatchilikda» «shovinizm»da ayblaydi. Negaki tojik millatlari yashayotgan hududlarning bir qismi O'zbekiston hududida qolib ketyapti, bunga o'zbeklar aybdor ekan. Unda o'zbeklar yashaydigan katta-katta hududlar, bevosita o'zbeklarning millat sifatida shakllanishiga asos bo'lgan juda

¹²Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T. 1997, 61-bet.

ko'plab tarixiy makonlarning Tojikston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Qozog'iston davlatlari hududlariga o'tib qolganligi uchun o'zbeklar kimni ayblashlari kerak? Xuddi shunday xato nuqsonlar va qusurlar uchun qozoqlar, qirg'izlar va turkmanlar kimlarni ayblasinlar? Umuman o'sha milliy-davlat chegaralanishi o'tkazilgan paytda faqat qozoqlar, qirg'izlar, tojiklar, turkmanlar, o'zbeklar va qoraqalpoqlar yashaydigan hududlarni O'rta Osiyoda ajratib olib sof qozoq, qirg'iz, tojik, turkman, o'zbek va qoraqalpoq milliy davlati qilib shakllantirish imkoniyati bormidi? Axir bu o'lkada qadim-qadimdan yashab kelgan ota-bobolarimiz yagona xalq yagona millat sifatida aralash-quralash yashab kelmaganmidilar. Ajabo, ilgarigi davrlarda bunaqangi, milliy ayrimachilik bo'lmagan-ku. Odamlarni oktyabr to'ntarishiga qadar milliy belgilar bo'yicha emas, balki kasb-xunar bo'yicha farqlaganlar-ku. Masalan zargarlik mahallasi, o'qchi mahallasi, kiygizchi mahallasi, pichoqchi mahallasi, zargarlik mahallasi, shirmonpozlik mahallasi, ko'nchilik mahallasi, nonvoylar mahallasi va hokazo. Milliy davlat chegaralanishini o'lkamizni abadul-abad mustamlakachilik asoratiga solish va ularning istiqlol uchun birlashib harakat qilishlariga rahna solishdan iborat razil niyat bilan velikoruslar amalga oshirganliklarini har bir turkistonlik ongli suratda tushunmog'i kerak. Ushbu masalaning tub mohiyatini qanchalik tezroq va teranroq anglab etilsa Turkiston xalqlarining umumiy maqsad yo'lidagi mustahkam birligi ham shunchalik tez qaror topadi va mustahkam asoslarda quriladi. Bu o'lkadagi barcha qon-qardosh xalqlarning talab va ehtiyojlariga javob beradi. Xullas, O'rta Osiyoda tashkil qilingan bu tuzilmalar Islom Karimov iborasi bilan aytganda davlat bo'lib shakllangan (davlatga o'xshash) tuzilmalar edi. Bu tuzilmalar suverenitet va mustaqillikdan batamom mahrum edilar, ular aslida SSSRning ma'muriy-iqtisodiy rayonlari darajasiga tushirilgan bo'lib, tashkil etilayotgan vaqtlaridayoq ularga asosan Markazning Manfaatlarga xizmat qilish, hom ashyo etishtirish kabi vazifalar aniq qilib belgilab berilgan edi¹³.

¹³O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitobi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida...302-bet

1.2. «Shaklan milliy va mazmunan sotsialistik». Sovetlar hukumatining islom diniga munosabati.

Bolshevoylar dohiysi V.I.Lenin ilgari surgan sotsializm qurish rejasining tarkibiy qismi «madaniy inqilob» edi. O'zbekistonda «madaniy inqilob» siyosati «shaklan milliy va mazmunan sotsialistik» madaniyatni rivojlantirish qobig'iga o'rab amalga oshirildi. Albatta bu Sovetlar Rossiyasining O'rta Osiyoda yuritayotgan buyuk davlatchilik, mustamlakachilik siyosatining tub mohiyatidan kelib chiqar edi. Chunki Sovetlar hukumati yurgizgan mustamlakachilik siyosatining mafkuraviy asosini ishlab chiqqan V.I.Lenin boshliq Kompartiya shu narsani yaxshi bilar ediki, mustamlaka Turkistonni dunyoning eng qadimiy madaniyat va ma'rifat o'choqlaridan biridir. Bu o'lkada qo'nim topgan xalqlarda esa eng ulug' va olijanob g'oyalar qadimdan qaror topgan. Bu yuksak darajada rivoj topgan vatanparvarlik, elparvarlik, mardlik, jasurlik, imon-e'tiqodlilik, milliy va diniy qadriyatlarga sodiqlik, erk, hurlik va ozodlikka tashnalik, bosqinchilar, mustamlakachilarga nisbatan cheksiz nafrat kabilardir. Sovet bosqinchilari bunga 1917-1934 yillarda Turkiston xalqlarining milliy istiqlol va ozodlik uchun olib borgan kurashlarini o'z ko'zlari bilan ko'rib ishonch hosil qildilar. Shuning uchun ham mamlakatimiz halqlariga xos bo'lgan ana shu olijanob va ulug' fazilatlarni ularning ongidan siqib chiqarmasdan turib Turkistonni o'z asoratlarida uzoq saqlab qololmasliklarini bosqinchi jallodlar yaxshi tushunar edilar. Bu vazifani amalga oshirish uchun esa tub erli musulmon aholini tarixidan, tilidan, madaniyati va asrlar osha shakllangan milliy, diniy qadriyatlaridan begonlashtirish va mahrum qilish lozim edi. «Shaklan milliy va mazmunan sotsialistik» madaniyat uchun kurash daturi xuddi ana shu mudhish vazifani bajarishga xizmat qildi. Mehnatkashlar ommasi ongiga ma'naviy ta'sir qilishning barcha vositalari: Maorif, fan, adabiyot, san'at, ommaviy axborot vositalari kabilar orqali ular ongida barcha milliyliklar siqib chiqarilib, «sotsialistik», «baynalminalchilik» qobig'iga o'ralgan, aslida esa qullik, tobelik, itoatkorlik, ruslashtirish-assimilyatorlik mafkurasi bosqichma-bosqich sistemali tarzda singdirib borildi.

Sovetlar hukumati va Kompartiya Turkistonda Oktyabr harbiy to'ntarishini amalga oshirgan birinchi kundan boshlab xalqimizning milliy-diniy qadriyatlarini g'orat qilish yo'lini tutdi. Bu mohiyatan tushunarli holdir. Chunki, qizil mustamlakachilar xalqimizni milliy va diniy ma'naviyatini o'zgartirmasdan turib bu o'lkada uzoq muddatda hukmronlik qila olmasliklarini yaxshi bilar edilar. Ammo bu ishni bolshovoylar birdaniga emas, ayyorlarcha, asta-sekin va bosqichma-bosqich amalga oshirib bordilar. Rossiya Sovet respublikasi XK Soveti 1917 yil 20 noyabrda e'lon qilgan va V.I.Lenin imzolagan «Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga» murojaatida: «Sizning din va urf-odatlarinigiz... bundan buyon erkin va dahilsiz...»¹ deb e'lon qilindi.

1918 yil 23 noyabrda esa V.I.Lenin imzosi bilan Cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish haqida dekret e'lon qilindi. Bu dekret RSFSR va SSSR Konstitutsiyalari asosida tuzilgan O'zbekiston SSRning 1927 va 1937 yillarda qabul qilingan Konstitutsiyalari uchun asos qilib olindi va vijdon erkinligi g'oyasi ilgari surildi. Amalda esa mutlaqo boshqa qonunlar hukmronlik qildi. Lenindan keyingi ikkinchi kishi hisoblangan Trotskiy bolsheviklarning dinga qarshi kurash tadbirlarini buzish borasida ko'pgina bema'niliklar, tuturiqsizliklar qilgan. Dasturga ko'ra dinga qarshi kurash maorif, ma'rifat, targ'ibot tushuntirish yo'li bilan olib borilishi va partiyaviy ishning boshqa mafkuraviy shakllari orqali olib borilishi kerak edi. Trotskiy esa bu ishga o'ta «revolyutsionlik» tusini bergan. Uning Lenin va Kalinin imzolari ostida VChK raisi F.E.Dzerjinskiyga 1919 yil 1 mayda yo'llagan ko'rsatmasida Butun Rossiya Ijroiya Komiteti va Xalq komissarlari kengashi qaroriga muvofiq imkon boricha ko'proq poplar va din yo'q qilinsin, poplar kontrrevolyutsionerlar va sabotajchilar sifatida qamoqqa olinsin va shavqatsizlik bilan hamma joyda otib tashlansin, imkon boricha ko'proq, cherkovlar yopib qo'yilsin, ibodatxonalar muhrlab qo'yilsin va omborxonalarga aylantirilsin deyilgan¹. Cherkovlarga va ruxoniylarga qarshi teror o'tkazishda Lenindan ham Stalindan ham ko'proq aybdor Trotskiyning o'zi edi. Joylarda esa bu sohada

¹ Lenin V.I. O`rta Osiyo va Qozog`iston to`g`risida.-T.: 1967, 405-bet.

¹ Vladimir Karpov. Generalissimus. Kniga pervaya. Veche. Moskva. 2003, str 67-68

trotskiychilar peshqadamlik qilganlar. Ular O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonda ham ana shunday bema'ni, noqonuniy ishlarni qilganlar.

1929 yil boshida L.M.Kaganovich imzosi bilan joylarga diniy tashkilotlar birdan-bir legal harakat qilayotgan va ommaga ta'sir ko'rsatuvchi aksilinqilobiy kuchdir, degan direktiva yuborildi. Joylardagi bolshevistik tashkilotlar uchun ushbu hujjat din va dindorlarga munosabati uchun birdan bir asos bo'ldi. Sovet hukumati va Kompartiya «din-xalq uchun afyundir» degan g'oyaga amal qildi. Dindorlar ta'qib va taz'iy qostiga olindi. Diniy kitoblar «reaktsion» deb e'lon qilindi. Diniy kitoblarni yo'qotish bahonasida arab imlosiga asoslangan eski o'zbek imlosidagi barcha kitoblar yo'q qilindi. Machitlar va madrasalar buzib tashlandi. Hatto peshtoqi, devori, eshik yoki ustunlarida arab imlosida yozuvi bo'lgan binolarga ham qiron keltirildi. Saqlanib qolgan ba'zi machit va madrasalar ham boshqa maqsadlarda foydalanildi: mineral o'g'itlar saqlanadigan omborxonalar, kerosin sotadigan do'kon, temirchixonalar kabilarga aylantirildi. «Hatto, Alloh taoloning uyi hisoblanmish masjid xudosizlar uyiga aylantirilgan. Ya'ni unda ateizm muzeyi ochilgan edi»².

20-yillarning oxirlarida Qarshi shahrida madrasalarni qamoqxonalarga aylantirgan ekanlar. «Xoja Abdulaziz madrasasida avaxtada yotganlarida xibsga olingan bechoralarni yo'q joydagi azoblar bilan qiynar ekanlar, Qish vaqtida, deng, madrasa xovuzining muzini yorib, bandilarni suvga solib qiynar ekanlar...»³.

Sovet tarixida masjid va madrasalarga ommaviy suratda qiron keltirish ikki marta bo'lgan. Biri 1934-1939 yillarda va ikkinchisi 1954-1955 yillarda. 1929-1939 yillar orasida faqat birgina Turkiston hududining o'zida 14,000 masjid yoqtirilib buzdirilgan. Shayxlar, imomlar va boshqa diniy arboblarda jazolangan: qamoqqa olingan, surgun qilingan va o'ldirilgan⁴.

Jumladan Qoraqolpog'iston respublikasi, Beruniy tumani hududidagi payg'ambar Muhammad Sallolohu alayhi vassallamning do'sti Sulton Vays boboga atab IX asarda qurilgan maqbara va masjidning tillodan yasalgan

²Saidov Murodullo, Ravshanov Poyon. Jeynov tarixi, 81-bet.

³O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1993 yil, 4 iyun.

⁴O'sha manba.

jihozlari, har xil buyumlari 30-yillarda talon-taroj qilindi. Madrasa esa buzib tashlandi.

1935 yilga oid ma'lumotlarga qaraganda Buxoro shahridagi Devonbegi madrasasida Buxoro yodgorliklarini saqlash komissiyasining ish yuritish xonasi, ekskursiya bazasi joylashtirilgan. Ko'kaldosh madrasasi va Devonbegi xonaqosida Buxoro shahar muzeyi bo'limi joylashdi. Masjidi Kalondan g'alla ombori sifatida foydalanganlar, Qo'shmadrasada paxta saqlangan.

Xuddi o'sha 1935 yilgi ma'lumotlarda ta'kidlanishicha, Mir Arab madrasasi, Bahovuddin Naqshband mozori va masjidi va boshqalar diniy markazlar sifatida qoralab kelingan¹. 1938 yilda Beshkentda antiqa «tarixiy voqea» ro'y berdi. Shu kuni tuman firqa va ijroiya qo'mitalarining qo'shma hay'ati majlisi bo'ladi. Unda Mamanazarov, Jmak, Otaboev, Jovliev, Aslanova, Doroshenko, Shaxobiddinovlar qatnashgan. Qo'shma hay'at «Kasbi» qishloq sovetidagi qo'hna masjid haqidagi masalani ko'rib chiqadi. Qabul qilingan qarorda: «...qishloqdan maydonda foydalanmay xarob bo'lib ketgan machit Stalin nomli jamoa xo'jaligi a'zolarining roziligi bilan machitning kerakli g'ishtlari olinib, boshqa kerakli joyga xarjlansin va shuning tasdig'i javobi O'zSSR Markaziy Ijroqo'mining hay'atidan so'ralsin»², deyilgan edi. Ana shu tariqa qadimiy tarixiy obidalar, machit va madrasalarni buzish, g'ishtlarini «kerakli» joylarga ishlatish, jamoa xo'jaliklarining «roziligi» bilan butun O'zbekiston hududidagi na faqat 20-30 yillarda balki undan keyingi yillarda ham an'anaviy tus olgan edi.

Islom diniga qarshi kurash bahonasida xalqimizning qadimiy urf-odatlarini, madaniyati, qadriyatlariga hujum boshlandi. «Ro'za hayiti», «Qurbon hayiti», «Navro'z» kabi xalq bayramlari taqiqlandi, hatto Islomgacha ham xalqning eng sevimli taomi bo'lib kelgan «Sumalak»ni payg'ambar taomi sifatida taqiqlab qo'ydilar. Uning o'rniga yangi sovet bayramlari va tantanalari joriy qilindi. Bular: «Oktyabr tantanasi», «SSSR Konstitutsiyasi kuni», «Qizil Armiya kuni», «V.I.Leninning tug'ilgan kunini nishonlash», SSSR va O'zbekiston SSRning tashkil etilganligini nishonlash va hokazolar shular jumlasidandir. Milliy

¹ O'sha manba.

² Saidov Murodullo, Ravshanov Poyon, Jeynov tarixi, 226-bet.

kiyimlarda yurish, sunnat to'yini qilish, o'z ona tilida muloqotda bo'lish eskilik sarqiti va madaniyatsizlik ko'rinishi deb baholanadigan bo'ldi. Bolalar bog'chalaridan tortib to oliy o'quv yurtlariga qadar bosqichlarda yoshlarni xudosizlik (ateizm) ruhida tarbiyalash dasturlari, darslik va qo'llanmalari ishlab chiqildi.

Muqaddas Qur'oni Karim kitobini o'qish u yoqda tursin, unga hatto ko'z tashlashning o'zi kechirilmas katta gunoh hisoblangan. Qur'on kitobi nasroniylar uchun rus tiliga tarjima qilindi, ammo o'zbek tiliga musulmonlar uchun tarjima qilinmadi. Faqat O'zbekiston milliy mustaqillikka erishgach 1992 yilda u o'zbek tiliga o'girildi.

Xotin qizlarni «ozodlikka chiqarish» bahonasida 1927 yilda respublikada «Hujum» harakati boshlandi. Xotin-qizlar faolligini oshirish bobida ma'lum ma'noda bu harakat ijobiy baholansada, uni tashkil etishdan ko'zlangan bosh maqsad reaksion edi. Avvalo bu harakat mahalliy xalqlarning asrlar osha tarixan shakllangan milliy an'ana va qadriyatlarini hisobga olmagan holda o'tkazildi, xotin-qizlarning ayollik sha'n-qadr-qimmatlari oyoq osti qilindi. Ko'p hollarda paranji chachvonni tashlash zo'rlik bilan amalga oshirildi. Ikkinchidan «xotin-qizlar ozodligi» uchun kurash bahonasida islom diniga qarshi kurash avj oldirildi. Chunki «xotin-qizlar ozodligi»ning asosiy dushmanlari qilib islom ruhoniylari ko'rsatildi.

Sovet hukumati va Kompartiya «Hujum» kompaniyasini o'tkazishdan quyidagi maqsadlarni ko'zlagan edi: **Birinchi**dan, o'zbek xalqining tarixan tarkib topgan milliy axloqiy sharqona an'ana va qadriyatlarini g'orat qilish va ma'naviyatimizga zarba berish: **Ikkinchi**dan, «xotin-qizlarni ozod qilish», bahonasida sanoat korxonalarini, kolxoz va sovxozlarda arzon garovda ishlaydigan qo'shimcha ishchi kuchlari sifatida ulardan foydalanish, amalda ularni sovet qullariga aylantirish edi.

Ulug' adib Chingiz Aytmatov «Hujum» kompaniyasi haqida so'zlab bunday degan edi: «Afsuski, davlat tomonidan o'tkazilgan «Hujum» kampaniyasi o'sha davrning og'ir hatolaridan biri edi deyish kamlik qiladi. Bu insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyat edi. Ustiga-ustak, ilohiy olamning

qurilmasiga qarshi yo'naltirilgan jinoyat edi. Xudoning barqarorligini inkor etgan mO'rtadlar Xudoning vazifasini o'z zimmalariga oladilar va «yangi odam yaratamiz» deb, dahshatli o'yin boshlaydilar».¹ Sovetlar hukmronligi davrida yozilgan tarixga oid darslik, qo'llanma va adabiyotlarda 30-yillarning ikkinchi yarmiga kelib sobiq Ittifoqda, shu jumladan O'zbekistonda ham «sotsializm asosan g'alaba qozondi» deb xaqiqat va mantiqqa zid xulosa chiqarilgan edi. Jumladan O'zbekiston SSR tarixi kitobida biz quyidagilarni o'qiymiz: «1936 yil noyabrda SSSR sovetlarining VIII favqulodda s'ezdi ochildi, s'ezd yangi Konstitutsiyani qabul qildi. S'ezd Sovet Ittifoqidagi hamma xalqlarning hayotida tarixiy voqea bo'ldi.

1936 yil 5 dekabrda tasdiqlangan va SSSRda sotsializmning jahonshumul tarixiy g'alabasini qonun yo'li bilan mustahkamlangan yangi Konstitutsiyani Sovet Ittifoqidagi hamma xalqlar shu jumladan, O'zbekiston SSR xalqlari ham mamnuniyat bilan kutib oldilar»¹.

SSSRning Yangi Konstitutsiyasi asosida O'zbekiston SSRning ham «yangi» Konstitutsiyasi tayorlandi. 1937 yil fevral oyida respublika sovetlarning Favqulodda VI qurultoyi bu Konstitutsiyani tasdiqladi. Qurultoyda O'zbekiston SSR Konstitutsiyasining 14-moddasiga binoan, Qoraqalpog'iston 1937 yilda O'zbekiston SSR tarkibiga muxtor respublika bo'lib kirdi.

Albatta SSSR va O'zbekiston SSR Konstitutsiyalarida mamlakatda «sotsializm g'alaba qilganligi» haqidagi hulosalar rasmiy harakterdagi g'irt uydirmadan boshqa narsa emas edi. Bu nechog'lik bema'ni va kulgili hulosa ekanligini mamlakatda yuqorida hikoya qilingan siyosiy tang vaziyat va amalga oshirilgan yalpi qatag'onliklar ochiq-oydin isbotlaydi.

O'zbekiston SSRning «yangi» Konstitutsiyasining boshidan oyoq har bir qoidasi respublikadagi real hayotiy voqealarga zid va qarama-qarshi edi. Ayniqsa Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasining «mustaqil» ekanligi, SSSR Ittifoqidagi barcha sovet respublikalari orasida «teng huquqli» davlat deb e'lon qilinganligi borib turgan lo'ttiboqlikning o'zi edi. Chunki O'zbekiston

¹ Chingiz Aytmatov. Qoyada qolgan ko'z yoshlar.-«Jahon adabiyoti» Adabiy-badiiy, ijtimoiy-publitsistik jurnal, 1997 yil, 2-son, 111-bet.

² O'zbekiston SSR tarixi. To'rt jildlik. Uchinchi jild. Bosh muharrir I.M.Mo'minov, 631-bet.

ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida Rossiyaning mustamlakasi bo'lib biror bir masalada mustaqil harakat qila olmas edi.

1939 yil martda bo'lib o'tgan VKP(b) XVIII s'ezdining «nazariy hulosasi» ayniqsa hammasidan oshib tushdi. Chunki s'ezd Sovet Ittifoqi Sotsializmni asosan qurib bo'lib, o'zining ichki taraqqiyotida sotsialistik jamiyat qurishni tugallash va asta sekin kommunizmga o'tish pallasiga kirdi degan kurakda ham turmaydigan g'oyani ilgari surdi. X.Tursunov va N.Beknazarovlarning yozishicha s'ezd: «Sovet xalqining kommunizmga borish yo'llari va istiqbollarini belgilab...»² bergan ekan. Ammo 1985 yil mart-aprelida kompartiya Markziy Qo'mitasining Bosh Kotibi mamlakatda hech qanday sotsializm degan jamiyat qurilmaganligini ro'y-rost aytishga majbur bo'ldi. U 1988 yil 18 fevralda KPSS MQsining Plenumida so'zlagan nutqida bunday degan edi: «Ammo ham ichki, ham tashqi sabablar taqozosi bilan biz yangi ijtimoiy tuzumning Lenincha printsiplarini etarlicha to'la-to'kis yuzaga chiqara olmadik. Shahsga sig'inish, 30-yillarda vujudga kelgan boshqaruvning buyruqbozlik-ma'muriyatchilik sistemasi, byurokratik, dogmatik va valyutaristik, soxtaliklar, bedodliklar...bunga katta halal berdi»³. Bu aytilgan jummalarga O'zbekistonda sovetlar hukumati va Kompartiyaning yurgizgan mustamlakachilik, ulug' davlatchilik va shovinistik siyosatini qo'shadigan bo'lsak, masala yanada oydinlashadi.

Unda 30-yillarning ikkinchi yarmida mamlakatda qanday davlat barpo etildi?-degan qonuniy savol tug'iladi. Taniqli o'zbek tarixchi olimi Hamid Ziyaevning bu to'g'ridagi fikri quyidagichadir: «Xullas, imperiyada «sotsialistik derjava» emas, «quldorlik derjavasi» qaror topdi. Bu qulchilikning asosiy belgilarini-xususiy mulkchilikning, siyosiy va insoniy huquqlarning yo'qligidan bilib olish mumkin. Shu bilan birga mamlakat «temir panjaralar» bilan batamom qurshab olinganini ham nazarda tutmoq lozim. Bordiyu bu haqiqatni tan olmaydiganlar topilsa, O'zbekistonda qanday tuzum hukm surganini o'zlari

¹ Tursunov X, Beknazarov N. O'zbekiston SSR tarixi, 187-bet.

² Gorbachev M.S. Revolyutsion qayta qurishga-yangilanish ideologiyasi. KPSS MQ Plenumida so'zlangan nutq. 1988 yil 18 fevral.-T. O'zbekiston, 1988, 2-bet.

aytishsin»¹. O'zbek xalqining milliy ozodlik kurashi 30-yillarning o'rtalariga kelib sovetlar saltanati kuchlari tomonida shafqatsizlarcha bostirilgan bo'lsada, xalqimizning qalbida, uning ongi shuurida istiqlol uchun, mustaqillik uchun mustamlakachi, kelgindi zolimlarga qarshi kurash g'oyasi zarracha bo'lsada so'ngan emas. Bu kurash dahshatli jahon urushi yillari (1939-1945)da ham, urushdan keyingi davrda ham turli ko'rinish, shakl va usullarda, goh ochiqchasiga, goh yashirincha olib borildi. Ayniqsa bu kurash 80-yillarda o'zining yangi bosqichiga kirdi.

Vatan tarixining shu davrga qadar bosib o'tilgan o'tmish shundan dalolat beradiki, istiqlol uchun kurash hamma vaqt O'zbekistonda bir-biridan mustaqil ikki yo'nalishda olib borilgan. **Birinchisi**, diniy-islomiy yo'nalishda bo'lsa, **ikkinchisi** umumma'rifiy-siyosiy va demokratik yo'nalishdadir. Bu har ikkala yo'nalishning umum mushtarak maqsad yo'lida mustaqillik uchun kurashda birlashib harakat qilmaganligi, ko'p hollarda esa ikkinchi darajali muammo va masalalar atrofida kelisholmasdan biri-birini inkor etib kelganligi har ikkala yo'nalishning ham zaif tomonlaridan bo'lib, undan mustamlakachi kuchlar ustalik bilan foydalanganlar. 80-yillarda ham bu jarayonda aydarlik o'zgarishlar bo'lgan emas.

1960 yilda Farg'onada «sochli eshonlar» guruhi nomi bilan katta shov-shuvga sabab bo'lgan harakat albatta ko'pchilikka ma'lum emas. Chunki sovetlar davrida bunday harakatlar oshkor qilinmas va xalqdan sir saqlanar edi. «Sochli eshonlar» guruhining boshlig'i Hotamxon Eshon bo'lgan. Hotamxon Eshon soch qo'yib yurar ekan va shu bois guruhga «sochli eshonlar» nomi berilgan. Bu guruh faoliyatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, guruh a'zolari oddiy va tor doirada bo'lmasdan o'z atroflariga yuzlab kishilarni birlashtirganlar va faqat diniy sekta bo'lib qolmaganlar. Bu guruhning muridlari na faqat Farg'ona vodiysida balki, O'rta Osiyoning boshqa shahar va tumanlarida ham bo'lgan. Guruh a'zolari O'zbekistonni Rossiyadan ajratib olish, Turkistonda islom dini mavqeini tiklash maqsadlarini ko'zlab ish olib borganlar. 1960 yilda guruh

¹ «Muloqat», 1993 yil, 10-son, 36-bet.

a'zolaridan 30 kishini¹ sovetlar qamoqqa oladi. Sud guruh boshlig'i Hotamxon Eshonni otib o'ldirishga va qolganlarini esa uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qiladi.

60-yillarning oxirlaridan e'tiboran O'zbekistonda hukmron kommunistik mafkuraga qarama-qarshi o'laroq diniy islomiy harakat keng quloch yoydi. Bu harakat yoshlarga eski o'zbek yozuvini o'rgatish, islom dini asoslarini ular ongiga singdirish, xalqimizning qadimiy urf-odatlarini va qadiryatlarini tiklash asosida ularning milliy his-tuyg'usini uyg'otish va milliy tafakkurini shkillantirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi. Bu harakat ayniqsa Farg'ona vodiysida keng quloch yoyib rivoj topdi. 60-70 yillarda bu erda eski o'zbek yozuvini o'rgatadigan yuzlab maktablar faoliyati ko'rsatdi. Oltiariq tumanining o'zida 20 dan ortiq bunday maktablar bo'lgan. Bu maktablar odatda kekxa, fozil va donishmand mullalarning uylarida ochilar va dars mashg'ulotlari kommunistik firqa rahbarlarining ko'zlaridan yiroq joylarda yashirincha va kechalari o'tkazilar edi. Sovet va Kompartiya rahbarlari doimo bu maktablarni ta'qib qilar, uning tashkilotchilariga nisbatan shafqatsiz choralar ko'rardi. Masalan, marg'ilonlik Hokim qori Vosiev maktab ochgani uchun vatanidan quvg'in qilindi. Namanganlik Abulqosim eshon, andijonlik Hamro otin va boshqa o'nlab din fidoyilari o'zbek farzandlariga eski o'zbek tilini o'rgatganliklari, Qur'oni Karim oyatlaridan ularni bahramand etganliklari uchungina turmalarga tashlaganlar.

70-yillarda Andijonda bosh ko'tarib chiqqan Rahmatilla Allomaning nomi sovetlarni dahshatga soldi. Bu zotning asli ismi-sharifi Rahmatilla Qodir bo'lib, xalq orasida Rahmatilla Alloma nomi bilan mashhur edi. Alloma bilan Davlat Xavfsizlik idoralari bevosita shug'ullandi. Uni Xalqaro «Musulmon birodarlar» mahfiy jamiyatining O'zbekistondagi vakili deb e'lon qildilar. Alloma o'z faoliyatida musulmon va turkiy xalqlar birligi va birodarligi uchun, yoshlarni islom qarashlari va g'oyalari, mustaqillik uchun kurash olib bordi. Buni 1978 yilda Raxmatilla Qodir o'g'li boshchiligida 77 nafar vatanparvar, xalq va dini islom uchun kurashchilar nomidan o'zbek xalqiga yozilgan Murojaat ochiq-

¹ «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 1992 yil, 14 fevral

oydin tasdiqlaydi. Allomaning har qancha iltijo qilishiga qaramasdan o'sha davrda sovet matbuoti bu Murojaatni o'z sahifasida e'lon qilmadi. Uning o'rniga gazetalarda go'yo «Allomaga ergashib xato yo'lga kirgan» kishilarning tavbatzarrulari bosib chiqarildi. Shundan so'ng Davlat Xavfsizlik organlari Rahmatilla Qodir «ishi» bilan bevosita shug'ullandilar. Ammo Allomaning xalq o'rtasida obro'-e'tibori shu darajada katta ekanki, Alisher Ibodinov xulosalariga qaraganda, uni to'g'ridan-to'g'ri hibsga olaolmadilar.

80-yillar boshlarida Rahmatilla Alloma-millat ishi uchun otashin va ulug' kurashchi sirli bir tarzda avtomobil halokatiga uchrab halok bo'ldi¹.

Sovetlar va Kommunistik firqa Islom diniga qarshi «din xalq uchun afyundir» degan qoidani ro'kach va asos qilib oldi, milliy qadriyatlarimizga qarshi tinimsiz kurashdi.

I.B.Usmonxo'jaev O'zKP XXI s'ezdida hisobot ma'ruzasida bunday degan edi: «Namangan viloyatida noxush diniy vaziyat hamon davom etib kelmoqda. Shu viloyatning shahar va rayonlarida ro'yxatga olinmagan diniy birlashmalar qonunga xilof ravishda ish ko'rib kelmoqda, o'smirlar va ayollarga gruppagruppa qilib diniy aqidalarni o'rgatish faktlari aniqlandi...

Din millatchilik va shovinizmga yo'l ochishini, ijtimoiy-iqtisodiy va sotsial rivojlanishga, sotsialistik turmush tarzini, kommunistik ahloqni qaror toptirishga juda katta g'ov bo'lishini doimo esda tutish kerak. Diniy sarqitlarda, qoloq urfodatlar va rasm-rusmlarda turmushimizdagi o'zgarishlarga qarshilik, mayda burjuaziya stixiyasi va xususiy mulkchilik psixologiyasi, ko'pdan-ko'p salbiy holatlar bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketgan»². Shu boisdan ham u bu borada o'z fikrini yanada aniqroq va ochiqroq bayon qiladi: «Dinga toqat qilish, murasozlik, loqaydlik, din bilan tilyog'lamalik qilish kabi har qanday ko'rinishlar partiyaga a'zo bo'lishga to'g'ri kelmaydigan hol, deb qaralishi kerak»³.

¹ «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 1992 yil, 14 fevral

² «Sovet O'zbekistoni», 1986 yil, 31 yanvar.

³ «Sovet O'zbekistoni», 1986 yil, 5 oktyabr.

II. SOVETLAR HUKMRONLIGI YILLARIDA YURITILGAN DINIY SIYOSAT VA UNING OQIBATLARI.

2.1. Sovetlar hukmronligi davrida qatag'on qilingan din peshvolari.

Birgina 1937 yilning dekabr oyida “uchlik”ning qarori bilan qatag'on qilingan 3644 kishidan 353 nafari imomlar, eshonlar, mullalar va boshqa diniy xizmatchilar bo'lgan. Bu esa qatag'on qilinganlar umumiy sonining 10 foizdan ortig'ini tashkil qilgan.

Bunga yaqqol bir misol tariqasida uch marta qatag'onga uchragan Nurotalik Saidjon eshon² Mansurxon eshon o'g'li hayotidan bir lavhani keltirish mumkin. Saidjon eshonning nevarasi Hoji Boboxon eshon quyidagilarni so'zlab berdi: “Saidjon eshon el orasida avji kamolda bo'lgan paytda, ya'ni 1930 yillarda barcha savodli mullolar ta'qib qilinib, istibdod kishaniga tushadi, qamoq va surgun azobidan ma'rifat vayron bo'ladi, ne-ne ilm xazinalari bo'lgan kitoblar yer ostiga ko'miladi. Saidjon eshon 1933 yilda nohaq ayblar bilan birinchi bor 5 yilga qamaladi.”¹

Ushbu ma'lumotlarning qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini Nurota tumani arxivida saqlanayotgan hujjatlar isbotlab berdi: “Respublika JKning 80-moddasi 3-qismi bilan Nurota shahrida tug'ilgan, 46 yoshli, ijtimoiy kelib chiqishi eshon va ijtimoiy tabaqasi katta eshon bo'lgan, Buxorodagi Xo'ja Porso madrasasini tamomlagan, imom oilasida tug'ilib o'sgan Said Mansurov qamoqqa olindi. U bilan ukasi 36 yoshli, Saidato masjidi imom xatibi, islomiy maktabda tahsil olgan Ato Mansurov, yana bir ukasi 25 yoshli Halimjon Mansurov (yozma savodi yo'q) ham qamoqqa olindi. Aybi: ular oliy ruhoniyy-eshon hisoblanib, moliya bo'limiga to'lanishi majburiy bo'lgan soliqni o'z vaqtida to'lamay, boshqa joyda yashab yurganligida.”¹

¹ Эшон — суфийлик оқимларида диний раҳнамолар унвони. Одатда, Эшонлар дарвишлик, суфийлик оқимларининг бирига мансуб бўлган. Исмоилийлар фирқаси диндорлар жамоасининг раҳбари ҳам Эшон деб аталган. Ўрта асрларда суфий раҳнамоларига мурожаат қилишда уларнинг исмлари ўрнида Эшон, баъзан «пир» сўзлари қўшиб ишлатилган. Уларга муридларни суфийлик йўлига ўргатувчи (муршид) сифатида қараб келинган. (Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 10 жилд, 335 бет).

² Дала материалларидан. Ушбу маълумотларни “Мерос” илмий экспедицияси натижасида ҳожи Бобоҳон эшон хотираларидан ёзиб олинди. 2008 йил 5 апрель. Нурота шаҳри.

¹ Мустафоев С. Нур ато этган Нурота. – Тошкент: Истиклол, 2004. – Б. 27.

1938 yilda qamoq va surgun muddatini o‘tab qaytgan eshon diniy faoliyati bilan bir qatorda “Stalin” nomli kolxozda miroblik qiladi, paxta va boshqa ekinlarni sug‘oradi. Ularning tinch hayoti, ommaning ixlosi tuzum rahnamolarini tashvishga solmay qo‘ymadi. Shuning uchun ham o‘ta jo‘n tuhmat: “Hassasi bilan g‘o‘zadagi ko‘raklarni qasddan urib tushirdi, kolxoz suvidan g‘arazli foydalandi”, degan uydirma bilan 6 yil qamoq va 3 yil surgun jazosiga hukm etiladi.

O‘sha vaqtlarda Nurota rayon ijroqo‘mining kotibasi bo‘lib ishlagan Po‘latoy Safarovaning ta'kidlashicha, jazolarni o‘tab qaytgan Said eshonning karomatlaridan hukumat xodimlari qo‘rqanligi sababli, u kishini otuvga hukm qila olmagan. Vaholangki, ular birgina chora, qamash va yana qamash bilan o‘ch olganlar. Oqibatda, bolalarga diniy ta'lim bermoqda, degan uydirma bilan uchinchi marta qamoqqa olganlar.

Hoji Boboxon eshon (hozirda hayot) sa'y-harakatlari bilan, qatag‘on zulmiga uchragan Said Mansurxon eshon 2001 yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi qarori bilan rehabilitatsiya qilingan, Nurotaning bir qishlog‘iga Saidjon eshon nomi berilgan.

1929-30 - yillarda respublikadagi yuzlab masjidlar yopilgan. Muqaddas ziyoratgohlar, namozgohlar va qadamjolar vayronaga aylantirilib, ulardagi yog‘och, g‘isht va boshqa qurilish materiallari ombor, kasalxona, choyxona, klub va boshqa inshootlar qurilishiga olib ketilgan. Bu kabi qurilishlarga, hatto qabristondagi g‘ishtlari ham olingan³.

Masjidlar bilan birga vaqf mulklariga qarashli uy-joylar, xonaqohlar, hammom, tegirmon, do‘konlar ham yarim vayrona holatiga keltirilgan, ko‘pchiligi yo‘qotib yuborilgan. Dindorlar va diniy tashkilotlarga tegishli bo‘lgan bog‘ va yer maydonlari tashlandiq joyga aylangan, vaqfkor dehqonlar esa yarim och, qashshoq holda yashagan. Dinga va dindorlarga qarshi kurash faqatgina diniy muassasalarni yopish bilan emas, balki xudosizlikni keng miqyosda tashviq va targ‘ib qilish bilan ham olib borilgan. O‘zbekiston SSR Maorif komissarligi qoshida sirtidan ta'lim beradigan dinga qarshi

kurashuvchilar instituti ochilib, 18 yoshdan boshlab ta'lim oladiganlar targ'ibot ishlariga yo'naltirilgan².

Ushbu holatlarni ta'riflagan Muso Turkistoniy: "Namoz, ro'za o'rtadan ko'tarildi. Qur'on o'qish mamnu' (man), qurbonlik yo'q, qo'y, mol, so'qum suyulmaydur. Qurbonlik qilg'anni jazosi mahkamada, 5 yillik surgunga mahkum, haqiqatda esa, qaytib kelmaydur, degan hukmnomada ishora (shifra) bordur. Bir kishi zakot bersa, va yo boshqa diniy ibodatlari ila uni dindorlig'i sobit bo'lsa, uni jazosi Sibir, ya'ni eng sovuq mintaqalardan o'rmonlikka qarag'ay daraxtlarini kesa-kesa o'lishga mahkumdir. Xalqda diniy bayramlar yo'q, jum'a ta'tillari yo'q, yo'qdur"³, - deb ta'kidlaydi. Musulmonlarning umrida bir marta amalga oshiradigan Haj safarlari ham tushga aylangan.

Faqatgina 1929 yil yanvardan 1933 yilgacha mustabid tuzum respublika milliy ziyolilarining 217 vakilini - yozuvchilar, jurnalistlar, o'qituvchilar va hokazolarni qatag'on qildi, ulardan ko'plari otildi⁴.

1937 - 1938 yillar, ya'ni "Katta terror" davrida qatag'onga tortilgan kishilarning faqat Samarqand va Buxoro okruglari bo'yicha jami soni 1300 nafarni, ulardan: Buxoro shahridan 114 nafar, Buxoro rayonidan 103 nafar, Kogondan 83, Bauman (Shofirkon) dan 73, G'ijduvondan 115, Sverdlov (Jondor) dan 19, Qorako'ldan 49, Romitandan 42, Vobkentdan 75, Qiziltepadan 67, Konimexdan 16, Karmanadan 76, Nurotadan 23, Xatirchidan 32, jami 887 kishini tashkil qilgan.

Sovet yillaridagi qatag'onlar davrida hukmronligi aholining har tomonlama ezilishi, tahqirlanishining bosh sababi unga ma'naviy jihatdan yetkazilgan navbatdagi zarba edi. Avvalo, inson ma'naviyatining bosh mezoni bo'lgan, axloq-odob, ta'lim-tarbiya, hayot maktabi bo'lgan din va diniy ta'lim faoliyatiga chek qo'yildi. "Biz o'z millatimizni muqaddas dindan ayro holda tasavvur qila olmaymiz. Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar hayotimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz biz o'zligimizni yo'qotamiz"⁵, - deb ta'kidlaydi Islom Karimov.

Ammo, o'tgan asrning 20 - yillari boshlarida diniy muassasa va tashkilotlar faoliyatiga ruxsat berish, vaqf mulklarini tiklash, ularni mamlakat iqtisodiy va

madaniy rivojlanishi asosiga aylantirish to'g'risida loyihalar ishlab chiqilgan, maxsus dekretlar qabul qilingan bo'lsa-da, bu sohada qabul qilingan qarorlar rasmiy bo'lib, hayotga tadbiiq qilinmasdan, qog'ozlarda qolib ketgan.

Sovet hokimiyatining dinga munosabati nomigagina bo'lib, 30 - yillarda dinga, dindorlarga uzoq vaqt o'zlarini o'nqlab ololmaslikka, o'limga, qochib yoki yashirinib jon saqlashga to'g'ri keladigan darajada qattiq zarba berildi. Milliy his-tuyg'ular, o'z-o'zini anglash, vatanparvarlik, g'ururlanish, fahrilanish va boshqa oliy insoniy fazilatlar hibsga olindi.

Birgina 1937 yilning dekabr oyida "uchlik"ning qarori bilan qatag'on qilingan 3644 kishidan 353 nafari imomlar, eshonlar, mullalar va boshqa diniy xizmatchilar bo'lgan. Bu esa qatag'on qilinganlar umumiy sonining 10 foizdan ortig'ini tashkil qilgan.

Bunga yaqqol bir misol tariqasida uch marta qatag'onga uchragan Nurotalik Saidjon eshon Mansurxon eshon o'g'li hayotidan bir lavhani keltirish mumkin. Saidjon eshonning nevarasi Hoji Boboxon eshon quyidagilarni so'zlab berdi: "Saidjon eshon el orasida avji kamolda bo'lgan paytda, ya'ni 1930 yillarda barcha savodli mullolar ta'qib qilinib, istibdod kishaniga tushadi, qamoq va surgun azobidan ma'rifat vayron bo'ladi, ne-ne ilm xazinalari bo'lgan kitoblar yer ostiga ko'miladi. Saidjon eshon 1933 yilda nohaq ayblar bilan birinchi bor 5 yilga qamaladi."

Ushbu ma'lumotlarning qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini Nurota tumani arxivida saqlanayotgan hujjatlar isbotlab berdi: "Respublika JKning 80-moddasi 3-qismi bilan Nurota shahrida tug'ilgan, 46 yoshli, ijtimoiy kelib chiqishi eshon va ijtimoiy tabaqasi katta eshon bo'lgan, Buxorodagi Xo'ja Porso madrasasini tamomlagan, imom oilasida tug'ilib o'sgan Said Mansurov qamoqqa olindi. U bilan ukasi 36 yoshli, Saidato masjidi imom xatibi, islomiy maktabda tahsil olgan Ato Mansurov, yana bir ukasi 25 yoshli Halimjon Mansurov (yozma savodi yo'q) ham qamoqqa olindi. Aybi: ular oliy ruhoniyy-eshon hisoblanib, moliya bo'limiga to'lanishi majburiy bo'lgan soliqni o'z vaqtida to'lamay, boshqa joyda yashab yurganligida."

1938 yilda qamoq va surgun muddatini o‘tab qaytgan eshon diniy faoliyati bilan bir qatorda “Stalin” nomli kolxozda miroblik qiladi, paxta va boshqa ekinlarni sug‘oradi. Ularning tinch hayoti, ommaning ixlosi tuzum rahnamolarini tashvishga solmay qo‘ymadi. Shuning uchun ham o‘ta jo‘n tuhmat: “Hassasi bilan g‘o‘zadagi ko‘raklarni qasddan urib tushirdi, kolxoz suvidan g‘arazli foydalandi”, degan uydirma bilan 6 yil qamoq va 3 yil surgun jazosiga hukm etiladi.

O‘sha vaqtlarda Nurota rayon ijroqo‘mining kotibasi bo‘lib ishlagan Po‘latoy Safarovaning ta'kidlashicha, jazolarni o‘tab qaytgan Said eshonning karomatlaridan hukumat xodimlari qo‘rqanligi sababli, u kishini otuvga hukm qila olmagan. Vaholangki, ular birgina chora, qamash va yana qamash bilan o‘ch olganlar. Oqibatda, bolalarga diniy ta'lim bermoqda, degan uydirma bilan uchinchi marta qamoqqa olganlar.

Hoji Boboxon eshon (hozirda hayot) sa'y-harakatlari bilan, qatag‘on zulmiga uchragan Said Mansurxon eshon 2001 yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi qarori bilan reabilitatsiya qilingan, Nurotaning bir qishlog‘iga Saidjon eshon nomi berilgan.

1929-30 - yillarda respublikadagi yuzlab masjidlar yopilgan. Muqaddas ziyoratgohlar, namozgohlar va qadamjolar vayronaga aylantirilib, ulardagi yog‘och, g‘isht va boshqa qurilish materiallari ombor, kasalxona, choyxona, klub va boshqa inshootlar qurilishiga olib ketilgan. Bu kabi qurilishlarga, hatto qabristondagi g‘ishtlari ham olingan.

Masjidlar bilan birga vaqf mulklariga qarashli uy-joylar, xonaqohlar, hammom, tegirmon, do‘konlar ham yarim vayrona holatiga keltirilgan, ko‘pchiligi yo‘qotib yuborilgan. Dindorlar va diniy tashkilotlarga tegishli bo‘lgan bog‘ va yer maydonlari tashlandiq joyga aylangan, vaqfkor dehqonlar esa yarim och, qashshoq holda yashagan. Dinga va dindorlarga qarshi kurash faqatgina diniy muassasalarni yopish bilan emas, balki xudosizlikni keng miqyosda tashviq va targ‘ib qilish bilan ham olib borilgan. O‘zbekiston SSR Maorif komissarligi qoshida sirtidan ta'lim beradigan dinga qarshi

kurashuvchilar instituti ochilib, 18 yoshdan boshlab ta'lim oladiganlar targ'ibot ishlariga yo'naltirilgan.

Ushbu holatlarni ta'riflagan Muso Turkistoniy: "Namoz, ro'za o'rtadan ko'tarildi. Qur'on o'qish mamnu' (man), qurbonlik yo'q, qo'y, mol, so'qum suyulmaydur. Qurbonlik qilg'anni jazosi mahkamada, 5 yillik surgunga mahkum, haqiqatda esa, qaytib kelmaydur, degan hukmnomada ishora (shifra) bordur. Bir kishi zakot bersa, va yo boshqa diniy ibodatlari ila uni dindorlig'i sobit bo'lsa, uni jazosi Sibir, ya'ni eng sovuq mintaqalardin o'rmonlikka qarag'ay daraxtlarini kesa-kesa o'lishga mahkumdir. Xalqda diniy bayramlar yo'q, jum'a ta'tillari yo'q, yo'qdur", - deb ta'kidlaydi.

2.2. Sovet hokimiyati yillarida musulmonlarning Haj ziyorati.

Sovet hokimiyati o'rnatilgungaa qadar Turkiston musulmonlarining haj ziyorati Rossiya imperiyasining qalqaro munosabatlari bilan uzviy darajada bog'lik bo'lgan. Bu Turkiston general - gubernatorligi, Xiva xonligi, Buxoro amirligining, butun Rossiya imperiyasining qo'shni mamlakatlar: ayniqsa, Eron Turkiya, Afgoniston, Britaniya Hindistoni bilan ko'p tomonlama munosabatlaridan kelib chiqqan¹, ikkinchidan, bu jarayon iqtisodiy omil bilan ham uzviy bog'lik bo'lib, katta miqdordagi mablag' Sharq mamladatlari, asosan Saudiya Arabistoniga oqib ketardi. To'g'ri Saudiya Arabistoni nomi bilan bir butun davlat 1932 yilda tashkil topgan, biroq; tarixiy adabiyotlarda yuqoridagi atamani, bu voqelikdan oldin qo'llash taomilga kirgan, Haj ziyoratini ado etib qaytgan musulmon vakillarning ma'naviy — axloqiy dunyoqarashida o'zgarishlar bo'lib, ular ,dunyoni, hayotni bohqacha idrok qila boshlashida muhim hissa edi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Turkiston general 1 — gubernatorligi davrida Makka va Madina hajiga boruvchilar soni ko'p bo'lgan. Sovet davrida esa Makka va Madina hajiga borish, yoxud musulmonchilikning bu farzini bajarish amalda nazardan tushdi. Yuqorida ko'rsatilganidek, markscha

¹ Алимова Д. Шодмонова Q Из истории паломничества мусульман Центральной Азии в Мекку (конец XIX От- начало XXI вв.) // O'zbekiston tarixi — 2011. — С. 60.

- lenincha metodologiya asosi bo'lgan ateizm (dahriylik) "Din ~ xalq uchun afyundir" - degan g'oyani xalq ommasi ongiga singdirishga harakat qilindi. Dinga munosabat mutaasiblik, eskilik sarqiti sifatida qarash, deb hisoblandi. Kommunistik mafkura hukmronligi sharoitida musulmon aholi naqadar og'ir turmush sharoitiga tushib qoldi. Madrasa va masjidlar yopilishi, islom me'moriy obidalarining vayron kilinyshi, 1917, 1924, 1925 -1935- yillardagi harbiy to'qnashuvlar o'zbek xalqi ma'naviy- madaniy rivojiga o'nqlab bo'lmas zarbalar berdi. Ta'qib va tazyiqlar bolsheviklar tomonidan diniy ulamolarga ham, musulmon aholiga ham o'tkazildi. Musulmon uyg'onish davri moddiy va ma'naviy yodgorliklari qarovsiz holda qolib yarim xaroba holatiga keltirildi. O'rta Osiyo xalqlari tarixi o'rganilar ekan, 1920 - 1930 yillarda Farg'ona vodiysi, Buxoro hududlaridan ayrim yillarda 2 — 3 kishi haj ziyoratiga borganligi kuzatiladi. Haj ziyorati uchun Makka va Madinaga amallab yetib olgan barmoq bilan sanarli shaxslarning ham ayrimlari Vatanga qaytmasdan, u yoki bu Sharq mamlakatlaridan birida yashab qolishgan. Ularning ko'pchiliklari Turkiya Respublikasini ikkinchi Vatan sifatida tanlashardi. Sobiq ziyoratchilar Turkiya shaharlarida savdo — tijorat ishlari, hunarmandchilik, hamollik va boshqa xizmatlar bilan shug'ullanishgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida (1939-1945 yy.) sovet hukumati dinga munosabatda "yumshoklik" yo'lini tutdi. Maqsad fashizmga qarshi kurashda diniy ulamolar va musulmon aholini o'z tarafida turishi, og'ir damda jamiyat yakdilligiga erishish edi. Qolayersa, SSSR musulmon mamlakatlari bilan yaqinlashgandi. 1943 yildan diniy rasmiy idoralar tashkil etildi¹⁴. Toshkent, Ufa, Boku xududlar bo'yicha musulmon boshqarmalari tashkil etildi. Jumladan, O'rta Osiyo musulmonlari diniy bopharmasi (keyinchalik O'rta Osiyo musulmonlari diniy boshqarmasi, Movarounnaxr musulmonlari diniy boshqarmasi) tuzildi. Mazkur diniy boshqarmaga O'zbekiston SSR hukumati Maorif nozirliги huzuridagi "Diniy ishlar qo'mitasi" ga haj ziyoratiga borish uchun rasman ariza berishga ruxsat etildi. Makka va Madina hajiga borish uchun juda ko'p sun'iy to'siqlardan o'tish kerak edi .

¹⁴Хайитов Ш. Узбек мухожирлиги тарихи. Т: АВУ МАТБУОТ КОНСА 2Т. — 2008. - Б. 141.

Shuning uchun¹ ziyortachilarning yillik o'rtacha soni ozligicha, barmoq bilan sanarli bo'lib qolayotgan edi. 1944- yilda Sovet Ittifoqidan haj ziyoratiga borganlar soni 6 nafarni tashkil etdi. 1953-yilda esa 23 kishi Makka va Madina hajida bo'lib qaytgandi. 1944-1953- yillarda har yili o'rtacha ziyoratchi musulmonlar soni 15-18 nafardan oshmagan. Ziyoratga borib qaytgan musulmonlarning 50-60 foizini O'zbekiston musulmonlari tashkil etgan¹⁵. Albatta, ko'p millionli SSSR davlati aholisi uchun yuqorida ko'rsatilgan raqamlar o'sha davr uchun, ahamiyatsiz, nomigagina haj ziyoratini amalga oshirishga ruhsat berilganligini ko'rsatadi.

Sovet hukumati organlari haj ziyoratiga ariza bergan shaxslarni (fuqarolarni) ijtimoiy kelib chiqishiga kata e'tibor qaratardi. Ziyorat uchun ruxsat berilganlarning asosiy qismi diniy ulamolar, magazin mudirlari, qorovullar edi. Nomigagina ishlab turgan 2-3 madrasa va maschidlarning xizmatchilari haj ziyoratiga yuborilish uchun umumiy ro'yxatga kiritilardilar. Aslida haj ziyoratiga borish istagini bildirganlar va hukumat organlariga ariza bilan murojaat qilganlar ko'p sonli edi. Musulmon aholi har qanday to'sik, taqiqlarga qaramay ariza berishda davom etavergan. 1961- yilda Makka va Madina haj ziyoratiga borish istagi bilan 100 nafar musulmon murojaat qilgan. Uzoq tekshiruvlardan keyin faqat 6 nafar musulmonga haj ziyorati uchun ruxsat berilgan². Haj ziyoratiga yuborish musulmonlarning Diniya Boshqarmasi ixtiyorida emasdi, bu jarayon hukumat va SSSR Davlat Xavfsizligi (KGB) idorasi tomonidan nazorat qilinardi. Musulmonchilik qoidalarini bajarish bilan bog'lik udumlar 1970-yillar oxiri - 1980 - yillarda yanada qat'iy ta'qib ostiga olindi. O'zbek xalqi uchun asrlar bo'yi yashab kelgan urf - odat va an'analar qoloqlik, diniy mutassiblik ko'rinishlari, qoldiqlari sifatida qoralandi va amalda ta'qiqlab qo'yildi. Ro'za Hayiti, Qurbon Hayiti bayramlari nishonlanmas, hatto, Navro'z ham diniy bayram deb e'lon qilindi.

1980-yillar boshida musulmon odat va marosimlari taqiqlandi, hatto janoza marosimlari ham o'tkazilmay qo'yildi. Ayniqsa, kompartiya a'zolari va hukumat

1. Алимova Д, Шодмонова С. Уша макол& — Б. 61.

² [http^A WWW.Pegmum.ru / news /1162979. html](http://WWW.Pegmum.ru/news/1162979.html).

rahbarlari o'zlarini yaqinlari janozasiga ham borolmay qoldi. Tarixiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 1960 - 1980- yillarda har yili o'rtacha 25-38 nafar musulmon ziyoratchi Makka va Madina hajida bo'lib qaytgan xolos. Haj ziyoratida aholi orasiga maxsus xizmat vakillari kiritilib ular qat'iy jadval asosida ziyorat arkonlarini bajarilishi ustidan nazorat qilardilar. Shuningdek, ziyoratchilarning asosiy qismini diniy muassasa va diniy tashkilotlarda faoliyat yuritganlarini dalillar ham tasdiqlaydi. Hukumat siyosatida mafkuraviy kuch va ta'sir o'tkazishdan himoyalaniş musulmon aholisi uchun qiyinchiliklarni yuzaga keltirgandi.

Xullas, sovet hokimiyati yillarida butun SSSR, jumladan, O'zbekiston musulmonlarining muqaddas shaharlar: Makka va Madinaga haj ziyorati jahon jamoatchiligi ko'zi oldida SSSRni erkin va ozod xalqlar ittifoqi qilib ko'rsatishdek soxta maqsadga qaratilgandi. Sovet davlati islom diniga, musulmon aholi va diniy ulamolarga munosabatda Chor Rossiyasidan ham bir necha bor ortiq salbiy munosabatda bo'ldi. Turkiston Rossiya imperiyasi ta'sirida bo'lgan yillarda musulmon ziyoratchilar soni 5 - 7 ming nafarga yetgan bo'lsa sovet hokimiyati yillarida ularning soni bir yilda bir necha kishidan oshmaganligi ushbu fikrimizga asos bo'ladi. 1980- yillarning 2-yarmida sovet jamiyatida qayta qurish, demokratiya, oshkoralik shiorlari ostida, boshlangan, garchi me'yoriga yetmagan bo'lsada, bir qator ijobiy o'zgarishlar kuzatilganligini ittifoqdosh respublikalardagi manaviy - milliy jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazdi.

1989- yilning iyun oyida I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi birinchi rahbari lavozimiga chiqqanidan so'ng barcha masalalarda tenglik munosabatlari o'rnatila boshlandi. 1990- yilda sobiq SSSR da "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqida" qonun qabul qilingaya edi. Mazkur qonun tufayli diniy e'tiqoddagi kishilar, ulamolar. ijtimoiy-madaniy hayotda barcha bilan teng huquqda ishtirok eta boshladilar. O'rta Osiyo. va Qozog'iston musulmonlari diniy Boshqarmasining 1989 - 1991- yillarda "Sovet Sharqi musulmonlari" nomli jurnali arab va kirill imlosida 25 ming nusxada, arab, fors va ingliz tillarida 50 ming nusxada nashrdan chiqib turdi. 1990- yildan boshlab har o'n besh kunda

arab va kirill imlosida “Islom nuri” gazetasi ham chop etila boshlandi¹. Saudiya Arabistoni bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlar musulmon axoliga Islomga, diniy qadriyatlarga xurmat-izzat kuchayganligi tufayli iliqlashdi. O‘zbekistonga va Diniy Boshqarmaga Madaliy ibn Abdulla, Abdulqodir Muhammad Solih, Abduhakim xalifa Buxoriy, Abdullajon Namongoniy, Sobir Dasan, Muhammad Yusuf, Muhammad Marg‘ub, Faxruddin Namangoniy, Fazl Maqsud Fazlhamid, Abdulqodir Marg‘inoniy kabi Saudiya Arabistonning Toif, Jidda Makka, Madina, Robig shaharlarida yashovchi vatandosh o‘zbeklar tashrif buyurdilar. Ular o‘z qavm — qarindoshlari hamda o‘zbekistonlik musulmonlarni haj ziyoratiga taklif qildilar, ziyoratchilarga shart - sharoitlar yaratib berishda beg‘araz yordam ko‘rsatish istagini bildirdilar. 1989 - 1990- yillarda hojilar bilan Saudiya Arabistonidan O‘zbekistonga 1 million nusxa musulmonlarning muqaddas kitobi “Qur‘on” va moddiy yordam sovg‘alari yuborildi.²

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublsheasi Prezidenti Farmoni bilan 525 nafar yurtdoshlarimiz (shulardan 12 nafari ayollar) Makka va Madina shaharlariga muqaddas haj ziyoratida bo‘ldilar. Saudiya Arabistoniga haj ziyorati va u bilan bog‘lik marosimlar 1990 -yilning 19-iyunidan 10-iyuliga qadar Makka va Madinada bajo keltirilgan.

Saudiya Arabistoniga haj ziyorati bilan borgan millatdoshlarimizni 400 - 500 ming muhojir o‘zbeklarning aksariyati ko‘zda yosh bilan quchoq ochib kutib olganlar, ziyoratchilarga yuksak ehtirom ko‘rsatilib mehmonnavozlik ko‘rsatilgan, ular o‘zbekistonliklar hech qanday musofirxonalarga, qiyinchiliklarsiz mehmonxonalarga joylashtirilgan, ziyoratchilarga kitoblar sovg‘a qilingan. Do‘kondor, savdogar arabistonlik o‘zbeklar O‘zbekiston bilan tijorat qilish takliflarini bildirishgan. Dastlab o‘zbekistonlik ziyoratchilar Toshkent -Islomobod - (Pokiston) - Jidda (Saudiya Arabistoni) yo‘nalishidagi havo laynerlari xizmatidan foydalanishgandi. O‘zbekiston milliy mustaqillikka erishganidan so‘ng, haj ziyoratini samolyotda O‘zbekiston - Saudiya Arabistonni yo‘nalishida to‘g‘ridan — to‘g‘ri amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Hozirgi

¹Хайитов Ш. Собиров Н. Легай А. Хориждаги узбеклар -Т.: Фан; 1992. - Б. 86.

² Эсиргап Боли угли Жушкин. // Хал к сузи, 1990 йил 4 январь.

davrda har yili “Haj” va “Umra” arkonlarini bajarish uchun 10 ming nafar o‘zbekistonlik musulmon yo‘lga chiqadi. vakillari “Umra”ga borib keldilar¹, Saudiya Arabistoni hukumati O‘rta Osiyo va Qozog‘iston (Markaziy Osiyo)dan haj ziyoratiga borgan musulmon vakillar uchun qulay shart — sharoitlar yaratib berilishiga e‘tibor qaratdi. 2009-yilda O‘zbekiston musulmonlari diniy bosharmasi idorasi bilan Saudiya Arabistonidagi “Al - Mavalda” kompaniyasi o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy kompaniyasi yordamida 11 reysda 2316 nafar ziyoratchilar, Umra ziyoratida bo‘lib qaytdilar². O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Din ishlari bo‘yicha qo‘mita” va uning viloyatlardagi bo‘limlari orqali O‘zbekiston Diniy Boshqarmasiga bu borada katta yordam ko‘rsatilmoqda. O‘zbekistondan Saudiya Arabistoni qirolligiga jo‘nab ketadigan ziyoratchilar avvalboshdanok tegishli ma‘lumotlar oladi, Haj, Umra qoidalaridan xabardor qilinadilar. Safarda ularga tajribali vrach va tibbiyot xodimlari hamkorlik qiladi. Milliy taomlarni tayyorlab beruvchi oshpazlar ham birga boradilar. O‘zbekiston fuqarolari barcha maishiy shart - sharoitlar yaratilgan ziyorat arkonlarini bajarishiga yaqin masofalarda joylashgan mehmonxonalarda istiqomat qiladilar. Makka va Madina shaharlarida O‘zbekiston vakolatxonolari mavjud. Barcha tashkiliy masalalarni Saudiya Arabistonida Jiddadagi O‘zbekiston bosh elchixonasi hal qiladi. Din ishlari bo‘yicha Qo‘mita ma‘lumoticha 2009-2010 yillarida 5000 nafardan o‘zbekistonliklar haj ziyoratiga borib qaytganlar. Biroq, haj ziyorati maqsadida yo‘lga chiqqanlar: hajga borib kelishning ziyorat” deb ataluvchi asosiy turi bilan birga “Haju sayyoxat”⁵, “Xaysu tijorat” kabi yo‘nalishlaridagi turli maqsadlarni ham bajaradilar.

Istiqlol tufayli asrlar davomida muqaddas shaharlar Makka va Madina hajiga erkin borib kelish bilan bog‘lik azaliy xalqimiz orzu -istaklari amalga oshdi. Har qanday siyosiy, moddiy, ma‘naviy istaklarsiz haj arkonidek muqaddas burchni bajarish baxti bugungi avlodga nasib etdi. Bugungi kunda O‘zbekistonda 2250 ta diniy tashkilot va muassasalar, 16 ta turli diniy konfessiyalar rasmiy ro‘yxatdan

¹ Алимова Д. Шадманова С. Из истории паломничества мусульман... // O'zbekiston tarixi. 2011. - № 1. — С. 60.

² [http. WWW.regnum.ru / news / 1162979. ntml.](http://WWW.regnum.ru/news/1162979.html)

o'tkazilgan. Ro'yxatdan o'tgan diniy tashkilotlarning 2042 tasi, yoxud 92 foizi musulmon tashkilotlaridir. Mamlakatimizda diniy o'quv yurtlari va 2000 dan ortik masjidlar faoliyat ko'rsatib turibdi. Yuqoridagi dallilar mamlakatimizda mustaqillik tufayli erkin ma'naviy taraqqiyot asoslari ta'minlab berilganligini tasdiqlaydi. Shunday ekan yurtimizning osoyishtaligi va tinchligi, jamiyat a'zolari hamjihatligi uchun kurashish har birimizning asosiy burchimiz bulmog'i kerak.

2.3. Mavzu yuzasidan ta'limni tashkil etish haqida tushuncha, uning xilma – xil turlari.

Dunyoda shunday ta'lim tizimi yuzaga kelganki, uning xilma – xil turlari mavjud bo'lib, ularni ko'pchilik “qo'llab turuvchi, ta'minlovchi, yordamchi o'qitish” deb ataydilar. U qanchalik xilma – xil bo'lmasin, uning asosiy maqsadi odamni kundalik muammolarni hal etishga tayyorlashga asoslangan bo'lib, shaxsning faoliyati va hayot tarzini qo'llab turish uchun mo'ljallangan.

Ayni vaqtda “Innovatsion” (yangilik kiritish) ta'limni tashkil etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Innovatsion ta'lim – bu bo'lajak mutaxassislarni joylarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u avval olgan bilimlar asosida ta'limni takomillashtirish va samarali yangicha yondashuv qilishdan iborat. Unda ta'lim – tarbiyada yangicha sifat ko'rsatkichiga erishib, yuqori samaradorlikni qo'lga kiritish amalga oshiriladi va ijodkorlikka yo'naltiriladi hamda ta'lim texnologiyalarini yangicha sifat bosqichiga ko'tarish, shuningdek, ta'lim – tarbiyada zamonaviy yondashuvlarni tashkil qilib borishni ta'minlaydi.

Innovatsion ta'limda zamon bilan hamnafas ta'lim texnologiyalarini yaratish bilan shug'ullanishga doim imkoniyat yaratilib boriladi.

Innovatsion ta'lim o'ziga xos ijobiy xususiyatlarga ega. Ular quyidagilardan iborat:

kadrlar tayyorlash tizimiga ilm – fanning uzviy ravishda kirib borishini ta'minlaydi. Bunda ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirish yuzasidan maqsadli innovatsion loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish yo'li bilan ilm – fanning ta'lim amaliyoti bilan integratsiyani ta'minlash chora – tadbirlari ishlab chiqiladi;

ilg'or pedagogik texnologiyalar va yangi axborot texnologiyalarini joriy etish uchun o'rta umumta'lim, o'rta maxsus, kasb – hunar ta'limi va oliy o'quv yurtlarida eksperimental maydonchalar tashkil etish orqali ilmiy – tadqiqot natijalarini o'quv – tarbiya jarayoniga o'z vaqtida joriy etish mexanizmlarini ro'yobga chiqarishga erishiladi;

ta'lim jarayonining istiqbolini oldindan ko'ra bilish, ya'ni ta'lim beruvchining avvalgi va hozirgi tajribasi asosida o'qitish emas, balki ta'lim oluvchini uzoq kelajakni mo'ljallashga (istiqbolli reja tuzishga) o'rgatishdan iborat bo'lib, unda ta'lim oluvchi ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda tashxislash, bashoratlash, modellashtirish va loyihalashtirishni amalga oshira olishi zarur;

ta'lim oluvchining hamkorlikda ta'lim olish va optimal qarorlarni qabul qilish (lokal va xususiydan tortib dunyoni, madaniyat, sivilizatsiya rivojlanishini hisobga olishdan global muammolarni hal etish)da faol ishtirok etishni ta'minlash.

Keyingi yillarda masofaviy ta'lim (lotincha distantia - masofa) uzluksiz ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda.

Masofaviy ta'lim – bu masofadan turib o'qitishning usullariga asoslangan holda aholining keng qatlamlariga taqdim etiluvchi zamonaviy ta'lim texnologiyasidir. U o'quv adabiyotlarining almashinish vositalari (Er sun'iy yo'ldosh, televideniye, radio, kompyuter aloqa va boshqalar)ga tayanib, ixtisoslashtirilgan axborot muhiti yordamida masofadan mamlakat aholisining keng qatlamiga va xorijiy davlatlarga taqdim etiladigan ta'lim xizmatlar majmuidan iborat.

Masofaviy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning samaradorligini oshirishda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi shaxsining

muntazam aloqasini ta'minlash asosiy vazifa bo'lib hisoblansa quyidagi ta'limiy imkoniyatlarni qo'lga kiritish mumkin:

masofaviy ta'lim o'qishga ijobiy yondashuvni ta'minlaydi;

pedagogik jarayon maqsadi sifatida ta'lim oluvchiga yo'nalish berish imkoniyati bor;

metodologik, nazariy, uslubiy bilimlarni egallashga imkon yaratadi;

bilish faoliyatini mustaqil tashkil etish imkonini beradi;

ta'limning turli axborotlarini topish va o'zlashtirish imkonini beradi;

zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil etiladigan bilish faoliyatini amalga oshirish borasida samarali qo'llaniladi;

axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishda, axborot olish va undan foydalanish samaralarini hosil qilish borasidagi ishlanmalarni tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratadi.

Masofaviy ta'lim pedagogik faoliyatning ijodiy xarakterini oshiradi, ya'ni zaruriy axborotlarni izlay bilish, tanlangan axborotlar bilan ishlay bilish va informatika vositalari yordamida odamlar bilan muloqotni samarali amalga oshira bilish yo'nalishlarini zamonaviy ta'lim talablariga mos holda ta'limni yanada optimallashtirib boraveradi.

Ta'limni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi

Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari bor. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratilib ko'rsatiladi:

individual;

individual – guruhli;

sinf – dars;

ma'ruza – seminarli;

sinf dan tashqari;

auditoriyadan tashqari;

maktab va maktabdan tashqari.

Ulardan ta'lim oluvchilarni qamrab olishi, ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqiligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra quyidagi asosiy turi iste'molda foydalanib kelinmoqda:

individual;

individual – guruhli;

sinf – dars;

ma'ruza – seminarli.

Qadim zamonlarda mavjud bo'lgan o'qitishning eng qadimgi shakli individual ta'lim hisoblanadi. Bu orqali hayotiy tajribalarni ajdodlardan – avlodlarga uzatish ibtidoiy jamiyatdayoq yuzaga kelgan edi. YOzuv paydo bo'lishi bilan qavm boshlig'i turli belgilar yordamida o'zining tajribalarini keyingi avlodga uzatgan. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning bevosita va individual aloqasiga hozirda misol sifatida repetitorlikni ko'rsatish mumkin. Ta'limni tashkil etishning individual shakli antik davr va o'rta asrlarda yagona usul bo'lgan, undan ba'zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanib kelingan.

Individual ta'lim bir qator afzalliklarga ega. SHuning uchun bu usulni bizning davrimizgacha repetitorlik shaklida saqlanib qolgan. Uning ustunligi o'quv faoliyati mazmuni, metodi va suratini to'la individuallashtirish, aniq bir masalani hal etishda uning har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishdan iborat. Individual ta'lim beruvchining yuqori pedagogik malakaga ega bo'lishini talab etadi.

Individual ta'limning kamchiliklari: vaqtning tejimli emasligi; ta'lim beruvchi ta'sirining cheklanganligi. (Bunda ta'lim beruvchining vazifasi ta'lim beruvchiga topshiriq berish va uni tekshirishdan iborat bo'ladi); boshqa ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (Bu ta'lim oluvchining yoki ta'limning ijtimoiylashishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi); jamoada ishlash tajribasini shakllanmasligi va shu kabilardan iboratdir.

Qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish natijasiga XVI asrdan boshlab ta'limning individual – guruhli shakli paydo bo'ldi. Bu ta'lim turidan XVI asrga

kelib yevropada keng foydalana boshlandi. Markaziy Osiyo davlatlarida bu ta'lim turidan qadim davrlarda ham foydalanganlar. Bunga Avesto davri misol bo'la oladi. Bu davrda ta'lim oluvchilar uchun asosiy o'quv qo'llanma zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" (Eramizdan avvalgi VII – XVI asrlar) bo'lib kelgan. Avesto davri jamiyatidagi maktablarda individual o'qitish jamoaviy o'qitish bilan birga olib borilar edi. Ta'lim beruvchi "Avesto" kitoblaridan birini ochadi va ta'lim oluvchilar navbatma – navbat kelib ovoz chiqarib o'qiydilar, keyin esa hamma birgalikda o'qilganni takrorlaganlar, mashqlarni maxsus taxtachalarda yozganlar. Aqliy mashqlar ta'lim beruvchining ta'lim oluvchi bilan erkin suhbatida olib borilgan.

Aynan biz yuqorida ta'kidlagan "xonliklar davrida konchilik ishlari tarixi"ni o'qitishda ham ta'limning innovatsion va interfaol usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

XULOSA

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi ijtimoiy hayotda har doim muhim va murakkab masala bo'lib kelgan. Binobarin, uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar yotadi. Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, uning sog'lom va barkamolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois bu masalaning ijtimoiy hayotdagi o'rni va bajaradigan vazifalari g'oyat muhim. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustavidan tortib barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, hamma mamlakatlarning konstitutsiya va qonunlarida vijdon erkinligi o'z ifodasini topgan. 1948 yilda qabul qilingan inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasiga muvofiq har bir inson fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o'z dini yoki e'tiqodini o'zgartirish erkinligini, o'z dini yoki e'tiqodiga o'zicha, shuningdek, boshqalar bilan birgalikda amal qilish kafolatini, ibodat qilishda va diniy marosimlarda yakka tartibda yoki odamlar orasida birga qatnashish erkinligini o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari bu masala yana bir murakkab hodisa – turli dunyoqarash, e'tiqodda bo'lgan kishilar o'rtasidagi, davlat bilan din, diniy tashkilotlar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarning amalda huquqiy ta'minlanishini ham nazarda tutadi. Zero, odamlar doim turli dunyoqarash va e'tiqod bilan yashaganlar va yashaydilar. Har kimning o'z ichki dunyosi, o'z e'tiqodi bo'ladi.

Vijdon erkinligi qandaydir bir mavhum tushuncha emas, u ma'lum ijtimoiy vaziyatda albatta namoyon bo'ladi. Shuning uchun uni konkret tarixiy, ijtimoiy sharoitsiz, ob'ektiv va sub'ektiv omillarsiz tasavvur qilish qiyin. Bundan tashqari «vijdon erkinligi» tushunchasini ilmiy talqin qilishda milliy, mafkuraviy va madaniy omillarni ham albatta nazarda tutish kerak. Mustaqillik yillarida vijdon erkinligi printsiplarini tiklash va unga og'ishmay amal qilish davr, kundalik hayot talabi va zaruriyatiga aylanib qoldi. 1991 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunni qabul qildi. 1998 yilda bu qonunning yangi tahriri qabul qilinib, 15 may kuni matbuotda e'lon qilindi va shu kundan e'tiboran u kuchga kirdi. Mazkur qonun 23 moddadan iborat. Uning 1-moddasida ushbu qonunning

maqsadi nimalardan iborat ekanligi ochiq va ravshan bayon etilgan: «Ushbu qonunning maqsadi har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqini, dinga munosabatidan qat'i nazar, fuqarolarning tengligini ta'minlash, shuningdek diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib turishdan iborat». Qonunning 3-moddasi vijdon erkinligi huquqi haqida bo'lib, unda har bir fuqaro dinga munosabatini o'zi mustaqil aniqlashi, u har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega ekanligi va bu huquq esa O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tomonidan kafolatlanajagi ta'kidlandi. 4-moddada fuqarolarning dinga munosabatlaridan qat'i nazar, teng huquqliligi haqida so'z boradi. Rasmiy hujjatlarda fuqaroning dinga munosabati ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmasligi ta'kidlanadi. Vijdon erkinligi haqidagi qonunning 5-moddasida O'zbekiston Respublikasida din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilganligi ko'rsatilgan. Bu degani davlat diniy masalalar bilan shug'ullanmaydi, diniy tashkilot va diniy boshqarma ishlariga aralashmaydi. Din va diniy tashkilotlar ham davlat ishlariga aralashmasligi lozim. Lekin diniy tashkilotlar jamoat ishlarida ishtirok etish huquqiga egalar. Shuningdek, mazkur moddada davlat turli diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlashi, konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga, xususan, bir diniy konfessiyadagi dindorni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlarga, missionerlikka yo'l qo'ymasligi ta'kidlangan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda vijdon erkinligi, din, diniy tashkilotlar va dindorlarga nisbatan davlat siyosatida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu o'zgarishlar:

- Birinchidan, vijdon erkinligi masalasining, davlat bilan diniy tashkilotlar o'rtasida munosabat masalasining mustahkam huquqiy negizi yaratildi. Bu huquqiy negiz – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi qonundir.

- Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi qonunda fuqarolar va diniy tashkilotlar uchun kafolatlangan huquqiy imkoniyatlar to'la ro'yobga chiqarilmoqda. Dinning mavqeyi tiklandi, barcha diniy uyushmalarga,

jamoalarga qonun doirasida ochiq va daxlsiz faoliyat ko'rsatish imkoiyati yaratilmoqda.

- Uchinchidan, O'zbekiston hukumati musulmonlarning xohish istaklarini inobatga olib, islom dunyosining muqaddas yodgorliklarini, tarixiy obidalarini diniy tashkilotlari ixtiyoriga o'tkazdi.

- To'rtinchidan, yangi masjidlar ochildi, eskilari ta'mirlandi. Masjidlar davlat ro'yxatidan o'tkazildi, hamda davlat oldidagi ma'suliyati belgilandi.

- Beshinchidan, din arboblari va ruhoniylar uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratildi. Diniy tashkilotlarga o'z davriy nashrlarini chop etish yo'lidagi to'siqlar olib tashlandi. Diniy adabiyotlarning chop etilishi sezilarli kupaydi. Xususan, Qur'oni Karim va hadislar o'zbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi.

- Oltinchidan, hamyurtlarimiz hajga va umraga - Maka va Madina ziyoratiga, diniy farzni ado qilishga borib kelmoqdalar.

- Yettinchidan, Respublikamizda muqaddas Ramazon va Qubon hayitlari bayram kunlari deb e'lon qilindi.

- Sakkizinchidan, diniy tashkilotlar xalqaro aloqalarni kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

- To'qqizinchidan, Vazirlar Mahkamasi huzurida diniy ishlar qo'mitasi tashkil etildi. Toshkent Islom universiteti, Xalkaro Islom tadqiqot markazi faoliyat ko'rsatmoqda.

- O'ninchidan, mashhur din arboblarning xotiralari ulug'lanmoqda, ularning tavalludiga bag'ishlangan yubileylar va anjumanlar katta tayyorgarlik bilan keng ko'lamda nishonlanmoqda.

Prezident Islom Karimov buyuk ajdodlarimizni ulug'lash masalasi xususida shunday degan edilar : «Xalqimizning tarixiy xotirasi ajoyib nomlarga boy. Ko'pgina allomalarimiz ma'naviyati keng va Ayni vaqtda qismati og'ir bo'lgan siymolardir. Ular o'zlarini haqiqatga tashna va o'zi haqiqat bo'lgan xalqqa bag'ishlaydilar. Buyuk ajdodlarimizning ulug' nomlari, xalq xotirasi va uning taqdiri munosib davom etishga haqlidir».

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2003.
2. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri) // O'zbekistonning yangi qonunlari, T. 19. T.: Adolat, 1998, 224-234-betlar.
3. Karimov I.A. Oллоh qalbimizda, yuragimizda. T., 1999.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997.
5. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li / O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: «O'zbekiston», 1992.
6. Karimov I.A. E'tiqod erkinligi qonuniy asosda bo'lsin // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy majlis XI sessiyasida so'zlagan nutqi. Xalq so'zi, 1998, 5 may.
7. Karimov. I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., “O'zbekiston” 2008.
8. A'zamjon Paxmonov, Abdumuxtor Raxmonov. Islom huquqi. Darslik. T., “TDYUI” 2007.
9. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyoti, 2001.
10. «Avesto» kitobi – tariximiz va ma'naviyatimizning ilk yozma manbai» mavzuidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. T., 2000.
11. Azimov A. Islom va hozirgi zamon. T., 1992.
12. Odilov A. Sovet hukmronligining dastlabki yillaridagi diniy siyosat tarixidan. O'zMU xabarlari. 2008. 62-63-betlar.
13. Sayid Mansur Olimiy. Buxoro-Turkiston beshigi. Buxoro: “Buxoro” nashriyoti, 2004. 144-bet.
14. Hayitov SH. O'zbek muxojirligi tarixi. T.: ABV Matbuot Konsalt. 2008.
15. Hayitov SH. Orziyev M. Rossiya imperiyasi hukumatining musulmon ziyoratchilarga munosabati (Arxiv manbalari asosida) BuxDU Ilmiy axboroti. 2012. 34-38-betlar.

16. Hoji Abdulg'affor Razzoq Buxoriy. Tariqatga yo'llanma. T.: "Movarounnahr" 2003. 104-bet.

17. Yusupov R. O'zbekistonda XX asrning 40-80-yillarida musulmon diniy tashkilotlari va ulamolari faoliyati. Dissertatsiya. Toshkent; 2008.